

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
Z.M.BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasida

Qo'lyozma huquqida

ABDUMANNOPOV HAMIDILLO TURSUNBOY O'G'LI

**“GLABALLASHUVNING IJTIMOIIY, SIYOSIIY VA IQTISODIIY
MOHIYATI, UNDA O'ZBEKISTON DAVLATINING ISHTIROKI
MASALASI”**

5111600 - Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq talimi yo'nalishi bo'yicha
bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIIY ISH

Ish rahbari : S.Asqarov



Andijon – 2016 yil

MUNDARIJA

KIRISH	3
 I. BOB. GLOBALLASHUV JARAYONLARINING MOHIYATI, TARIXIY ILDIZLARI VA GLOBALLASHUVNING IJTIMOIIY-SIYOSIY MOHIYATI.	
1.1 Globallashuv tushunchasi va uning mohiyati.....	8
1.2 Globallashuv davrida ijtimoiy-siyosiy xavfsizlik va uning mohiyati.....	16
 II. BOB. GLOBALLASHUV JARAYONLARIDA O'ZBEKISTON DAVLATINING XAVFSIZLIK MASALALARI.	
2.1 Globallashuv davrida O'zbekistonning tashqi iqtisodiy xavfsizlik masalalari.....	24
2.2 O'zbekiston respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining qonuniy asoslari.....	32
 XULOSA	 49
 FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO'YXATI	 56

KIRISH

Bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega. Bu masalaning kuchini doimo ogoh qilishga undovchi tomoni shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo'lsa, buni sezish, ko'rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning ta'sirini va oqibatlarini tezda ilg'ab etish nihoyatda qiyin.

Islom Karimov

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqil O'zbekiston yigirma to'rt yil mobaynida asrlarga tatigulik tarixiy yo'lni bosib o'tdi. Yurtimizda olib borilayotgan islohotlar endilikda ortga qaytmaydigan jarayonga aylandi. Bu, avvalo, istiqlolning, uni mustahkamlash, shuningdek, globallashuv sharoitida mamlakatimizning milliy va tashqi iqtisodiy xavfsizlik va tinchligi uchun olib borilayotgan tinimsiz kurashning natijasidir. Darhaqiqat, xavfsizlik va tinchlikka erishmasdan turib, biror ezgu maqsadga erishib bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak" nomli kitobi bilan tanishganda ko'ngildan shu fikrlar o'tadi, kitobning qimmatliligi shundaki, unda muallif mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, terrorchilik balosiga qarshi kurashga juda katta e'tibor qaragan. Bugungi kundagi yurtimiz tashqi iqtisodiy xavfsizligiga to'sqinlik qiluvchi omillarga qarshi kurashda kuchlarni birlashtirish, harakatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan taklif, fikr va mulohazalar globallashuv sharoitida O'zbekistonning tashqi iqtisodiy xavfsizligi dolzarb masala ekanidan dalolat beradi.

Bugungi kunda hayotimizda ilmiy adabiyotlar va ommaviy axborot vositalari orqali “globallashuv”, “global dunyo”, “iqtisodiy- moliyaviy globallashuv”, “ahliglobal harakatlar” degan iboralar kirib keldi. Ana shu globallashuv jarayonlarining ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, uning salbiy jihatlari, ayniqsa milliy ma’naviyatimiz va ahloqiy qadriyatlarimiz, yoshlarimizning dunyoqarashi va turmush tarziga o‘tkazayotgan salbiy ta’sirlaridan doimo ogoh bo‘lishni talab etadi.

XX asrning oxiri –XXI asrning boshida jahon taraqqiyotida shakllangan yangi umumsayyoraviy tartib, tamadduniy bosqich mazmun-mohiyati, davlatlar va kishilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning kengayishi va murakkablashishi, dunyo miqyosida axborot makoni, kapital, tovar hamda ishchi kuchi bozorida tamoman yangicha vaziyatning vujudga kelishi, atrof muhitga texnogen ta’sirning kuchayishi, ommaviy madaniyat namunalari keng tarqalishi, informatsion-mafkuraviy va diniy-ekstremistik xurujlar xavfini ortib borishi, xullas, jamiyat hayotining barcha sohalari- iqtisodiyot, siyosat, mafkura, madaniyat, hatto shaxsiy turmush tarzini qamrab olgan globallashuv jarayoni bilan bog‘lanmoqda.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Glaballashuv jarayonlari va iqtisodiy xavfsizlik masalalari mohiyati va unga ta’sir etuvchi omillar hamda ularning milliy iqtisodiyot rivojlanishiga ta’siri, tashqi iqtisodiy aloqalar strategiyalarini ishlab chiqishning nazariy-uslubiy jihatlari xorijlik olimlar — J. Stiglest, Kurustkiy A.B., F.Fukuyami, S.Dyatlov, K.Xornshild, L.Blyaxman, G.Kissindjer, Z.Bjezinskiy, J.Bxagvati va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyat yuritishning o‘ziga xos xususiyatlari, globallashuv jarayonlari va ularning milliy iqtisodiyotga ta’siri haqida MDH olimlari – Erekesheva L.G., Guliev

M., Spartaka A.N., Yudaeva K., Yasin E., Shishkov Yu. va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Globalashuv sharoitida milliy iqtisodiyotni jahon iqtisodiy tizimiga integrastiyalashuv muammolari, tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish va xorijiy investistiyalarni jalb qilish, tashqi va milliy iqtisodiy xavfsizlik masalalari bo'yicha respublikamiz iqtisodchi-olimlari Ishmuhammedov A.E, Jalolov J.J, Tuxliev N., Isadjanov A.A., va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Tadqiqotning maqsadi globalashuvning asl moxiyati va bu jarayonda O'zbekiston davlatining ishtiroki xamda tashqi iqtisodiy xavfsizligining qonuniy asoslari, xavfsizlikni ta'minlovchi omillar, shuningdek, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining mamlakatimiz iqtisodiyotiga ta'siri bo'yicha ilmiy-uslubiy va amaliy tavsiyalar ishlab berishdan iborat.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda ishda quyidagi vazifalarni hal etish ko'zda tutilgan:

- Globalashuv tushunchasi va uning moxiyati
- Globalashuv va ijtimoiy siyosiy iqtisodiy atamalari tavsifi;
- globalashuv sharoitida tashqi iqtisodiy xavfsizlik tahlil qilish;
- O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatining qonuniy asoslari va tashqi iqtisodiy xavfsizligini ta'minlovchi omillarni aniqlash;
- globalashuv sharoitida jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozning mamlakatimiz iqtisodiyotiga ta'siri, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari tahlil qilish

Tadqiqotning ob'ekti va predmeti. Tadqiqotning ob'ekti etib Globalashuvning davrida O'zbekiston davlatining ishtiroki masalasi.

O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy xavfsizligi holati va takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari tadqiqot ishining predmeti hisoblanadi.

Tadqiqotning nazariy-uslubiy asoslari bo'lib O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Prezident farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va I.A.Karimov asarlari; mahalliy darsliklar, o'quv qo'llanmalar va ma'ruza matnlari; mahalliy, internet yangiliklari, veb-sahifalar xizmat qildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiliklari quyidagilarda o'z aksini topadi:

- Globallashuv va tashqi iqtisodiy xavfsizlik masalarlarining mohiyati ochib berilgan;
- O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining qonuniy asoslari tahlil qilingan;
- O'zbekiston tashqi iqtisodiy xavfsizligini ta'minlovi asosiy omilar: eksport va xorijiy investistiyalarning o'rni;
- eksport tarkibini devirsifikastiya qilish va eksportbob mahsulotlar ishlab chiqarishda korxonalarini rivojlantirish yo'llarini ilmiy-uslubiy o'rganilgan;
- O'zbekiston investistiya siyosatining maqsad va vazifalarining asosini ochib berish;

Ishning amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishdagi ilmiy jihatdan asoslangan taklif va tavsiyalar O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy xavfsizlik faoliyati bilan bog'liq axborot-tahliliy materiallar tayyorlashda hamda globallashuv jarayonida iqtisodiy xavfsizlik masalalari bo'yicha ijtimoiy soxa fanlarini o'qitish jarayonlarida qo'llanilishi mumkin.

Ilmiy ishning tarkibiy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, to'rtta reja, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ruyxatidan iborat.

Kirishda mavzuning dolzarbligi, o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati o'z aksini topgan.

Globallashuv tushunchasi va uning mohiyati deb nomlangan birinchi rejada avvalo globalizastiya tushunchasining mohiyati ochib berilgan. Ikkinchi rejada Globallashuv davrida ijtimoiy-siyosiy xavfsizlik va uning mohiyati ochiib berilga uchinchi rejalda Globallashuv jarayonida O'zbekiston tashqi iqtisodiy xavfsizlik masalalari xaqida fikrlar bildirilgan, to'rtinchi reja O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining qonuniy asoslari masalalariga bag'ishlangan.

Xulosada tadqiqotning natijalari umumlashtirilgan, ilmiy-amaliy ahamiyatga ega taklif va tavsiyalar tartiblashtirilgan.

I.BOB. GLOBALLASHUV JARAYONLARINING MOHIYATI, TARIXIY ILDIZLARI VA GLOBALLASHUVNING IJTIMOIIY- SIYOSIY MOHIYATI.

1.1 Globallashuv tushunchasi va uning mohiyati.

Insoniyatning aqliy salohiyati o'sib borgani sari uning ehtiyojlari ham oshib boradi. U bugun kechagiga qaraganda, ertaga esa undan-da ko'proq yaxshi yashashga, moddiy-ma'naviy barkamollikka erishishga va farovon hayot kechirishga intilmoqda. Aslida, bu insoniyat taraqqiyotining mazmuni, uning hayot kechirish qonuniyati va falsafasi hisoblanadi.

Albatta, ana shu yaratilayotgan texnika vositalari bir tomondan butun insoniyat aql-zakovatining mevasi va er kurrasida yashayotgan barcha xalqlar manfaatlariga xizmat qilmoqda, ikkinchi tomondan esa ulardan foydalanishdani tengsizlik, ya'ni unga ega bo'lganlarning boshqalar ustidan hukmron bo'lishiga intilishlari, millatlar o'tasidari munosabatlarda kim moddiy jihatdan baquvvat bo'lsa, boshqalar unga itoatkor va bundaylar uning ma'naviyatini qabul qilishga majbur, degan tamoyil amaliyotning yuzaga kelayotganligiga, insoniyat aql-zakovati yuksak darajaga ko'tarilgan sharoitdagi ma'naviy qashshoqlashuvning jirkanch ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi.

Globallashuvning millatning mustaqil sub'ekti sifatida saqlanib qolish jarayoniga o'tkazayotgan salbiy ta'siri bugunning o'zida sezila boshladi. U milliy-ma'naviy qadriyatlarni ichidan va tashqaridan emirmoqda¹.

Globallashuv atamasi dastlab XX asrning 80-yillari boshlarida iqtisodiy sohada sodir bo'lgan o'zgarishlarni yuzaga keltirgan omil sifatida amerikalik

¹ Karimov I.A "Yuksak ma'naviyat engilmas kuch" -T.: "Ma'naviyat" 2008-yil. 110-112-betlar.

olim T. Levittning 1983-yilda “Garvard biznes revyu” jurnalida e’lon qilingan maqolasida qo’llanilgan edi.²

“Globallashuv” tushunchisini bugungi kunda jahon miqyosida yuzaga kelgan muammolarga nisbatan qo’llanilganda bu ta’rifga qo’shilish mumkin.

Respublikamizda “global” va “globallashuv” tushunchalari va uning jahon miqyosida turli sohalarga o’tkazayotgan ta’sirini talaba yoshlarga tushuntirish borasida keyingi paytda alohida e’tibor berilayotganini alohida ta’kidlash lozim. Jumladan, 2005-yil O’zbekiston respublikasi oliy ta’lim bakalavriyat bosqichi uchun nashr qilingan “Milliy istiqlol g’oyasi” darsligida alohida “Globallashuv jarayonlarida milliy g’oyaga ehtiyojning ortishi” mavzusi kiritilgan.

Globallashuv jarayonlari quyidagilarda namoyon bo’ladi:

- 1- globallashuv-muttasil davom etadigan tarixiy jarayondir;
- 2- globallashuv-jahonning gemogenlashuvi va universiallasuvi jarayoni;
- 3- globallashuv-milliy chegaralarning yuvilib ketish jarayoni.

“Globallashuv” tushunchisiga mualliflar tomonidan yuqorida ilgari surilayotgan turli fikrlarga qo’shilish mumkin.

Aslida, “Globallashuv” ning asl mohiyati va uning barcha sohalarga o’tkazayotgan ta’sir doirasini bilish ucun uni maqsadga muvofiqligani solishtirish muvofiqdir.

Globallashuv tushunchasiga keltirilayotgan bu ta’riflarimizni yana boshqacha yo’sinda ham davom ettirishimiz mumkin. Ammo bu ta’rifda millatlar, xalqlar, mamlakatlar va mintaqalarning yuksak taraqqiy qilgan mamlakatlarning kuchli bosimi ostida toboro bir butunlik tomon borayotganligi g’oyasi alohida e’tibor qaratilgan. Haqiqatan ham bu jarayon

² “Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” -:T 2001yil, 25-bet.

tabiiylikdan ko'ra kuchli tomonning bosimi ostida kechayotganligini har qadamda sezish mumkin.

“Globallashuv” – bu ijtimoiy-siyosiy jarayon. U dunyoda intensiv o'sayotgan odamlar oqimi, sarmoyalar, tovarlar, xizmat va axborotlar aylanishiga sabab bo'ladi. Globallashuv jarayoni 1990-yillar o'rtalarida asrning buyuk kashfiyoti internet paydo bo'lgach, yanada murakkab tabiatga ega bo'ldi.³

Globallashuv turli mamlakatlarga o'tkazayotgan ta'siri ham turlicha. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, axborot, ma'naviy salohiyatli va siyosati qanday ekani bilan bog'liq. Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir mamlakatga o'tkazayotgan salbiy ta'sirini kamaytirish va ijobiy ta'sirini kuchaytirish uchun shu hodisaning mohiyatini chuqurroq anglash, uning xususiyatini o'rganish lozim. Bu hodisani chuqur o'rganmay turib unga moslashish, kerak bo'lganda, uning yo'nalishini tegishli tarzda o'zgartirish mumkin emasm. Globallashuv mana shunday jarayonki, uni chuqur o'rganmaslik, undan foydalanish strategiyasi, taktikasi va texnologiyasini ishlab chiqmaslik mamlakat iqtisodi va madaniyati, ma'naviyatini tog'dan tushayotgan shiddatli daryo oqimiga boshqaruvsiz qayiqni topshirib qo'yish bilan baravar bo'ladi.

Taruxiy rivojlanishning boshlang'ich bosqichlarida globallashuv – iqtisodiy integratsiyani ijobiy omili va milliy iqtisodning natijali o'zgarishiga ko'makchi sifatida qabul qilingan.

Globallashuv jarayoning kelib chiqishi haqida gap ketar ekan, bu terminga izoh beraman. “Globalizatsiya” – “gloub” (ing. ya'ni yer shari) “global” butun dunyoga tegishli deganidir.

³ www. Ziyonet.uz

Yuqorida globallashuv tushunchasi, uning mazmun va mohiyati haqida batafsil fikr yuritgan edik. Endi millat tushunchasi, mazmuni va uning globallashuv jarayonidagi rivojlanish tendensiyalari haqida fikr yuritishga harakat qilamiz.

Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi va ikki qutbli dunyoning barham topishi

Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi (er sharini qamrab olish, dunyo miqyosidagi, umumiy).- g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlarining kengayishi oqibatida unga Er yuzining barcha mintaqalari tortilganligini, mafkuraviy kurash umumbashariy miqyos kasb etganini ifodalovchi tushuncha. Bugungi dunyoda mislsiz ilmiy kashfiyotla, ulkan texnikaviy imkoniyatlar, universal texnologiyalar, axborot tarqatishning globallashuvi, ya'ni ularning butun kurrai zaminni qamrab olish jarayoni shiddat bilan bormoqda. Masalan, Internet tizimi orqali axborot almashuv, binobarin, g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlari ham tobora kengaymoqda.

Jahon maydonlarini mafkuraviy bo'lib olishga urinishlar:

Siyosiy (buyuk davlatchlik shovinizmi).

Diniy (diniy ekstremistik va aqidaparastlik, panislomizm).

Badiiy (G'arb turmush tarzini targ'ib qiluvchi, Amerikacha turmush tarzini targ'ib qiluvchi, zo'ravonlik, yovuzlik va boshqa axloqsizliklarni targ'ib qiluvchi).

XX asr oxiri va XXI asr boshlariga kelib kommunistik va sotsialistik partiya ta'siridagi sotsializm lageri parchalandi. Dunyo mamlakatlari rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakarlarga bo'lindi. Ana hu rivojlangan ba'zi mamlakatlar o'z milliy mustaqilligini qo'lga kiritgan, rivojlanayotgan mamlakatlarni, jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan bo'lib olishga urinmoqdalar. Ular quyidagilar:

Dunyoni bo'lib olishga urinayotgan mafkuralarning shakllari:

- 1-Buyuk davlatchilik mafkurasi.
- 2-Diniy ekstremistik mafkuralar.
- 3-Pansovetizm mafkurasi.
- 4-Panislomizm mafkurasi.
- 5-G'arb turmush tarzini ifodalagan mafkuralar.
- 6-Amerikacha turmush tarzini ifodalagan mafkuralar.
- 7-Turli diniy sektalarning g'oyalarni ifodalovchi mafkuralar.

Har qanday voqeani ijobiy va salbiy natijalari bo'ladi. Globallashuvning ham.

Globallashuvning ijobiy natijalari-XX asrdagi zamonaviy ilm-fan yutuqlari odamlar tasavvirini keskin o'zgartirib yubordi. Respublikamiz intellektual salohiyati XXI asrga kelib jahondagi ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlardan ilgarilab ketdi. Olimlarimiz buyuk bobolarimizning o'zlashtirib, tarixiy merosimizni chuqur o'rganib, dolzarb muammolarni tadqiq qilishga dadil kirishib, o'z mehnatlari bilan Respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga hissa qo'shmoqdalar.

Globallashuvning salbiy natijalariga albatda o'z vaqtida kurash olib borish lozim. Yoshlarda dunyodagi mafkuraviy manzarasini va globallashuv jarayonlarini teran anglash va bu borada zarur ko'nikmalar hosil qilib bormoq lozim. Buning uchun biz yuqorida bayon etganimizdak, islom ekstremizmi va aqidaparastligiga keskin kurash olib bormoq uchun siyosiy, huquqiy, ma'naviy bilimlarimizni chuqurroqlashtirishimiz lozim. Diniy ekstremizm va aqidaparastlikning keltirib chiqarayotgan sabablarini o'rganmoq kerar⁴.

⁴ Sh.M. Asqarov, M.B.Rasulov Milliy istiqlol g'oyasi fanidan ma'ruzalar matni. Andijon, 2009-yil, 47-49 betlar.

1) Birinchi sababi- mustamlakachilik va yangi mustamlakachilik, buyuk davlatchilik shovinizmi.

2) Xalqaro munosabatlarda musulmonlarga qarshi zo'rvonlik, musulmon davlatlarining G'arb mamlakatlaridan kuchayib ketmasligiga erishish niyati, "parchalab tashla va hukmronlik qil "degan ko'p sinalgan siyosatni davom ettirish.

3) Uchinchi sabab – iqtisodiy kamsitish, kalondimog'lik. Boshqa madaniyat, boshqa sivilizatsiyaning, xususan, ko'p asrlik ildizlariga ega Sharq falsafasining bir qismi bo'lgan islom sivilizatsiyaning fazilatlarini, umuman, islomning o'zini yaxshi bilmaslik, tushunmaslik hollari kabi sabablarni ham ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

Bugun millatning bo'yi bastiga va unga nisbatan fikrlarni ilgari surishdan oldin sobiq sovet davrida e'lon qilingan ilmiy adabiyotlarda (ular mafkuraviy manfaatlar nuqtai nazardan bo'li-shidan qat'iy nazar) mavjud bo'lgan ayrim ijobiy fikrlarni hisobga olmay turib, globallashuv sharoitida milliy rivojlanish borasida yuzaga kelayotgan muammolar, millatlararo munosabatlarda yuzaga kelgan yangi tendensiyalarni anglashga urinish samara bermaydi. Chunki har qanday yangi g'oyalar ham qanday bo'lmasin mavjudlarini tahlil qilishni va o'rganishni taqozo qiladi. Zero, ular masalaga yangi qarashlar uchun solishtirishlar imkonini beradi.

Ana shunday fikrdan kelib chiqiladigan bo'lsa, eng avvalo "millat" tushunchasining paydo bo'lishi va u to'g'risidagi munozaralarni tahlil qilish lozim bo'ladi. "Millat" tushunchasi ustidagi bahs-munozaralar sobiq sovet adabiyotida 1966 yillarda boshlangan edi. Adolat yuzasidan aytish kerakki, milliy masalaga bag'ishlangan ko'pgina jiddiy ilmiy izlanishlar bo'lib, ularning ahamiyatini aslo inkor etib bo'lmaydi, chunki bu tadqiqotlarning ayrimlarida asosli xulosalar mavjud edi. Eski jamiyatdan qolgan irsiy

kasalliklarni davolash juda uzoq davom etdi. Bu “kasallik”ni davolashning nazariy konsepsiyasi ishlab chiqilmas va u real hayotda tadbiq etilgan.

Bugun biz tez sur’atlar bilan o’zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o’ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Davlat va siyosat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos olimlar, sharhlovchi va jurnalistlar bu davrni turlicha ta’riflab, har xil nomlar bilan atamoqda. Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamoqda.

Albatta, bu fikrlarning barchasida ham ma’lum ma’noda haqiqat, rasional mag’iz bor. Chunki ularning har biri o’zida bugungi serqirra va rang-barang hayotning qaysidir belgi alomatini aks ettirishi tabiiy. Ammo ko’pchilikning ongida bu davr globallashuv davri tariqasida taassurot uyg’otmoqda. Bunday ta’rif, menimcha, ko’p tomondan masalaning mohiyatini to’g’ri ifodalaydi. Nega deganda, hozirgi paytda yer yuzining qaysi chekkasida qanday bir voqea yuz bermasin, odamzot bu haqda dunyoning boshqa chekkasida zudlik bilan xabar topishi hech kimga sir emas.

Ana shunday globallashuv fenomeni haqida gapirganda, bu atama bugungi kunda ilmiy-falsafiy, hayotiy tushuncha sifatida juda keng ma’noni anglatishini ta’kidlash lozim. Umumiy nuqtai nazardan qaraganda, bu jarayon mutlaqo yangicha ma’no-mazmundagi xo’jalik, ijtimoiy-siyosiy, tabiiy-biologik global muhitning shakllanishini va shu bilan birga, mavjud milliy va mintaqaviy muammolarning jahon miqyosi-dagi muammolarga aylanib borishini ifoda etmoqda.

Globalashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni ob’ektiv

tan olish kerak bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqalar va hududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas.

Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lgani singari, globallashtirish jarayoni ham bundan mustasno emas. Hozirgi paytda uning g'oyat o'tkir va keng qamrovli ta'sirini deyarli barcha sohalarda qo'rish, his etish mumkin. Ayniqsa, davlatlar va xalklar o'rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, ko'plab yangi ish o'rinlarining yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilmfan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizda uyg'unlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi, ekologik ofatlar paytida o'zaro yordam ko'rsatish imkoniyatlarining ortishi tabiiyki, bularning barchasiga globallashtirish tufayli erishilmoqda.

Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig'iz, shu qadar tez-korki, endi ilgarigidek, ha, bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo'q, deb beparvo qarab bo'lmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada qolib ketishi hech gap emas.

Globalleshtirish jarayonining yana bir o'ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog'lom fikrlaydigan har qanday odam, albatta, kuzatishi muqarrar.

1.2 Globallashuv davrida ijtimoiy-siyosiy xavfsizlik va uning mohiyati.

Bugungi kunda ma'naviyat dunyosiga nisbatan mavjud bo'lgan xavf-xatarlardan albatta ko'z yumib bo'lmaydi, lekin bizning ishonchimiz komilki, xalqimiz tarixning murakkab jarayonlarida irodasi chiniqib, har qanday hujum va tazyiqlarga qaramasdan, ma'naviy olami kuchayib va yuksalib borayotgani, bizni ko'rolmaydigan kuchlar ham bu haqiqatni tan olayotganini mamnuniyat bilan qaqd etamiz⁵.

XXI asr boshlariga kelib dunyo mamlakatlari o'rtasidagi ta'sir shu qadar kuchayib ketdiki, bu jarayondan to'la himoyalangan birorta ham davlat yo'q, deb aytish mumkin. Insoniyat bosib o'tgan urug' tarixiy taraqqiyot yo'li shundan dalolat beradiki, ishlab chiqarish texnologiyalari va kommunikatsiya vositalarida tub o'zgarishlar yuz berishi jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqadi.

Iqtisodiy xavfsizlik g'oyalari va u bilan bog'liq bo'lgan «iqtisodiy xavfsizlik» tushunchasi mamlakatimizga respublikamiz mustaqilligi e'lon qilinganidan so'ng kirib kela boshladi. Mustaqillikdan avval bunday tushunchalar mutaxassislarning tor doirasigagina ma'lum edi. Sobiq Ittifoq davrida ushbu masalaga bag'ishlangan ikkita kitob birinchi marta («Xorijiy adabiyotlarda iqtisodiy xavfsizlik masalalari» va «Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik») 1988 yilda bosilib chiqqan edi. 90 - yillarda iqtisodichilarning maqolalarida va ommaviy axborot vositalarida «iqtisodiy xavfsizlik» iborasi qo'llanila boshlandi.

Rossiyaning iqtisodiy xavfsizligi muammolari bo'yicha birinchi maqolalar «O voprosax ekonomiki» jurnalida bosilib chiqa boshladi. Masalaning nazariy tomonlari L.Abalkin, A.Arkipov kabi

⁵ I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent, ma'naviyat, 2008

taniqli rossiyalik iqtisodchi olimlari maqolalarida keng yoritib berildi. Keyinchalik rossiyalik boshqa yirik iqtisodchilar ham ushbu muammoni o'rganish bo'yicha munozaralarga ko'shildilar. 1997 yilda E.A.Oleynikovning tahriri ostida «Оснoвы экономическoй безопасности. (Gosudarstvo, region, predpriyatie, lichnost), V.S.Zagashvilining «Экономическaya безопасность Россii» deb nomlangan kitoblari Rossiyada nashr etildi. Ularda muammoning nazariy va uslubiy asoslari ishlab chiqildi. Iqtisodiy xavfsizlik masalasi nazariy jihatdan chuqur tahlil qilindi.

Demak, aytish mumkinki, «Iqtisodiy xavfsizlik» tushunchasi o'zbek iqtisodiyotini boshqaruv organlarining leksikasida yangidir. Ayni paytda ushbu ibora xorijiy mamlakatlar boshqaruv tizimlari faoliyatida yaxshi tanish bo'lgan tushunchadir. Iqtisodiy xavfsizlik davlatning milliy xavfsizligini asosiy tashkil etuvchilaridan biridir va mamlakatning iqtisodiy ehtiyojlari kafolatlanishi va uni ta'minlashning yo'llari, vositalari va usullariga asos soluvchi qarashlarning yig'indisidir. Konseptual ko'rinishda u davlatning iqtisodiy potentsialining holatidan kelib chikadigan iqtisodiy xavfning asosiy omillarini tahliliga asoslangan. Davlatning xavfsizligi kuchsiz va samarasiz iqtisodiyotda ta'minlanishi mumkin emas, ayniqsa glaballashuv jarayonidagi ijtimoiy nizolarga to'la jamiyatda, chunki hammasi o'zaro bog'langan va biri ikkinchisini to'ldiradi.

Iqtisodiy xavfsizlikni asosida rivojlanish va rivojlanishni barqarorligiga o'xshash bo'lgan muhit tashkil etuvchilari yotadi — bu material, inshootning, uni yangi sifat holatiga, ya'ni tarkib yoki tuzum o'zgarishiga keltiradigan, zarur bo'lgan yo'naltirilgan qonuniy o'zgarishidir. Rivojlanishsiz iqtisodiy taraqqiyot bo'lishi mumkin emas.


Barqarorlik — bu jamiyatning favqulodagi holatlarda xam o'z manfaatlarini qoniktirish qobiliyati, holatni tiklash imkoniyati.


Asosiy iqtisodiy xavfsizlik tahdidlari-mamlakatning iqtisodiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi jarayon bo'lib, malakat, jamiyat va shaxs iqtisodiy manfaatlarini chegaralaydi.

Birinchi marta iqtisodiy xavfsizlik termini resurslarni chegaralanganligi to'g'risidagi savol keskin turgani bilan bog'lik bo'lgan holda paydo bo'lgan bo'lsa, globallashuv sharoitida uning sub'ektlari ortib, uni turkumlashni taqazo etmoqda. Iqtisodiyot sub'ektlari nuqtai nazaridan iqtisodiy xavfsizlik quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

- shaxsning iqtisodiy xavfsizligi;
- korxonaning(firma) iqtisodiy xavfsizligi;
- davlatning iqtisodiy xavfsizligi.

1.2.1-chizma





Shaxsning iqtisodiy xavfsizligi uning hayotiy manfaatlarining, ya'ni yashash va shaxsiy daxlsizlik, erkin mehnat qilish, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish, mulkdor bo'lish, hayotiy iste'mol ehtiyojlarini qondirish, salomatligini saqlash, bilim olish va kasbga ega bo'lish, qariganda va mehnat layoqatini yo'qotganda ijtimoiy ta'minot olish huquqlanganini ifodalaydi. Bunda shaxsning bozor iqtisodiyotida iste'molchi va ishchi, xizmatchi, tadbirkor sifatidagi ijtimoiy-iqtisodiy huquq va erkinliklarining, manfaatlarining himoyalangani, kafolatlangani nuqtai nazaridan iqtisodiy xavfsizlikni ikki turga ajratish mumkin.

Korxonalarining(firma) iqtisodiy xavfsizligini tahlil qilganda ularni ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, moliyaviy, savdo-tijorat hamda notijorat va jamoatchilik tashkilotlari sifatida faoliyat yuritishi nuqtai nazaridan turkumlash maqsadga muvofiq. Korxonaning(firma) ixtisosligiga ko'ra xavfsizligini ta'minlash xususiyatlari ham turlicha bo'lishi tabiiydir.

Davlatning iqtisodiy xavfsizligi uning mamlakat ichki muammolari va tashqi iqtisodiy faoliyati hamda xalqaro moliyaviy tashkilot va uyushmalarda ishtirok etish bilan bog'liq xavf-xatarlar nuqtai nazaridan tahlil etiladi.

Iqtisodiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning tarkibiy qismiga kirganligi uchun milliy xavfsizlikning tashkil etilishi va shakllanishi bilan bog'liq masalalar bilan ko'rib chiqilishi lozim. Iqtisodiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi va uning moddiy asosi hisoblanadi. Shuning uchun, iqtisodiy xavfsizlik mamlakat milliy xavfsizlik genezisi va

shakllanishiga doir masalalar qatorida o'rganilib chiqilishi darkor. Adabiyotimizda iqtisodiy xavfsizlik asosiy paradigmasini quyidagi elementlar tashkil etadi:

- Xalqaro munosabatlar tuzumiga o'tish ya'ni ishchi kuchi konstepstiyasidan manfaatlar konstepstiyasiga qarab;
- Iqtisodiy xavfsizlikning bir biriga qarshi tipdagi g'oyalar va tuzulmalardan xalqaro iqtisodiy hamkorlik va xalqaro munosabatlarga asoslangan model tomon harakatlanishi;
- Hudud daxlsizligini ta'minlash prinstepiga qo'shimcha qilib mintaqqa, korxonalar, oilalar va shaxs iqtisodiy xavfsizligi prinstepini kiritish;
- Iqtisodiy sohadagi tahdidlar kompleks xususiyatga ega bo'lib, avvalo, YaIMning sezilarli darajada qisqarishi, investition va innovastion faoliyat hamda ilmiy-texnikaviy salohiyatning pasayishi, qishloq xo'jaligi sektoridagi inqiroz, yoqilg'i xomashyosi va energetik komponentlarni eksporti sur'atining oshishi, importda esa birlamchi va iste'mol mollarining o'sishi kuzatiladi.

Davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatida esa quyidagi masalalar muhim o'rin tutadi:

- Milliy iqtisodiyotning xalqaro integrastiyalashuviga qulay sharoit tashkil etish;
- Milliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlari sotish bozorlarining kengayishi;
- MDH davlatlari bilan yagona iqtisodiy hudud barpo etish;
- Milliy ishlab chiqaruvchilarning manfaatlarini himoya qilish;
- Barqaror kredit-moliyaviy siyosatini tashkil etish, boshqa davlatlardan tashqi kredit olishni kamaytirish orqali ularga bog'lanib qolishni oldini olish;

- Chet el banklari, sug'urta va investition kompaniyalarni boshqarishda davlatning rolini oshirish.

- Iqtisodiy xavfsizlikning quyidagi darajalari mavjud:
- Xalqaro (global va mintaqaviy)
- Milliy
- Lokal (mintaqaviy yoki mamlakat ichidagi tarmoqlar)
- Xususiy (korxonalar va shaxs).

Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik— shartnomalar va institustional tuzilishni amalga oshirish borasidagi barcha xalqaro shartlar majmuasi bo'lib, unda xar bir jaxon hamjamiyatidagi a'zo davlatning erkin saylash va o'zining ijtimoiy–iqtisodiy taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqishi, tashqi bosim uchramasligi, boshqalarni ishiga aralashmasligi, o'zaromanfaatli va o'zaromuvofiqlik asosida jahondagi boshqa davlatlar bilan hamkorligi.

Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik taraqqiyot modellarning bog'lanib qolishini, shuningdek, xar bir xalqning o'z yo'lini tanlashda huquqini tan olish, manfaatlari hurmat qilinishi orqali iqtisodiy va siyosiy qaramlikni rad etadi.

Tashqi qarz-kredit olish orqali mamlakatning byudjet xarajatlarini moliyaviy qoplash natijasida shakillanadigan mamlakatning qarz summasi. Tashqi qarz mamlakatning iqtisodiyoti uchun og'ir yuk bo'lib, iqtisodiy kon'yunkturasi yomonlashuviga olib keladi. Biroq, tashqi qarz iqtisodiyotning o'sishi uchun rag'bat vazifasini ham bajarishi mumkin. Bu bilan birga mamlakatning real imkoniyatlarini hisobga olmay, haddan tashqari olingan tashqi qarzlarni mamlakatni inqirozga va suverenitetining yo'qotilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Amaliyotda deyarli barcha mamlakatlar tashqi moliyalashtirish manbalarni jalb qilishga harakat qiladilar, aks holda ularning ko'pchiligida ichki kapital qo'yilmalarini qo'yish, ijtimoiy iqtisodiy islohatlarni o'tkazish,

tashqi qarzlarni majburiyatini bajarish uchun byudjet taqchilligi-yu, ichki resurslar tanqisligiga uchraydi.

Yana bir iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soladigan omil bu iqtisodiyotning haddan tashqari ochiqligi. Iqtisodiyot ochiqligi-jahon xo'jaligi aloqalar va xalqaro mehnat taqsimotida maksimal qatnashishga ko'zlangan iqtisodiy sistemadir. U boshqa davlatlar iqtisodiyotiga bog'liq bo'lmagan avtarkiya iqtisodiy tuzumga qarshidir. Shuning uchun, iqtisodiyot ochiqligi normal holat va ob'ektiv zaruriyatdir. Biroq, malakatning ishlab chiqaruvchi, moliyaviy, bank tizimi va pul aylanishi kabi strategik sohalarni himoyalanganlik darajasini hisobga olgan holda ish ko'rish lozim.

Iqtisodiy xavfsizlik turlarining mohiyatini vujudga kelish sabablarini o'rganish, milliy manfaatlarga tahdidlarni aniqlash, ularning oldini olish va ulardan muhofazalanish chora-tadbirlari, mexanizmlarini ishlab chiqish hamda vujudga keltirishga imkon beradi. Buning uchun ushbu xavf-xatarlarni va xavfsizlik darajasini aniqlash, ularning ko'rsatkich mezonlarini o'rganishga zarurat tug'iladi.

Binobarin, ma'naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o'z-o'zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog'lom avlod kelajagini ta'minlash yo'lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin⁶.

Hayot haqiqati shuni ko'rsatmoqdaki, dunyoda hamisha ezgulik va yovuzlik, taraqqiyot va tanazzul o'rtasida doimo kurash davom etib kelmoqda. Har qanday taraqqiyot mahsulidan ezgulik va yovuzlik maqsadida foydalanish mumkin. Shu o'rinda globallashtirish jarayonidagi g'oya va mafkuralarning mamlakatlar iqtisodi, siyosati va ma'naviyatiga o'tkazishi mumkin bo'lgan ijobiy va salbiy ta'siri Xindistonning mashhur davlat arbobi

⁶ I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent, ma'naviyat, 2008

Mahatma Gandining quyidagi soʻzlarida yaxshi ifodalangan: “Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib oʻtira olmayman, chunki, uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul boʻlib, uyimni agʻdar-toʻntar qilib tashlashi, oʻzimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman. Buyuk faylasufning bu gaplarida qanchalik haqiqat borligini hayotning oʻzi koʻrsatib turibdi.

II.BOB. GLOBALLASHUV JARAYONLARIDA O'ZBEKISTON DAVLATINING XAVFSIZLIK MASALALARI.

2.1 Globallashuv davrida O'zbekistonning tashqi iqtisodiy xavfsizlik masalalari

Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni menimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bg'liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda va ko'pchilik butun jahonda bamisoli balo-qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish naqadar muhim ekanini anglab olmoqda⁷.

Hozirgi kunda kim ko'p ana shunday ma'naviy bo'shliqni to'ldirishga urinadigan, shuning hisobidan o'zining g'arazli maqsadlarini amalga oshirishni o'ylab yurganlar ko'p. Ming afsus-ki, bu kuchlarning asl qiyofasi, maqsad-muddaolari va imkoniyatlarini to'la va aniq-ravshan tasavvur qilish oson emas. Nega deganda, ular ko'pincha turli niqoblar, jozibali shior va g'oyalar pardasi ostida ish ko'radi. Bunday kuchlarning ixtiyorida juda katta moddiy, moliyaviy resurslar va imkoniyatlar mavjud bo'lib, ularning puxta o'ylangan, uzoq va davomli yovuz maqsadlariga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda dunyoning ayrim hududlarida ana shunday harakatlar natijasida katta ma'naviy yo'qotishlar yuz berayotgani, millatning asriy qadriyatlari, milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqayotgani, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash tarzi jiddiy xavf ostida qolayotganini kuzatish mumkin.

Eng yomoni, bunday xurujlarning pirovard oqibati odamni o'zi tug'ilib o'sgan yurti va xalqidan tonishga, vatanparvarlik tuyg'ularidan

⁷ I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent, ma'naviyat, 2008

mahrum etishga va hamma narsaga loqayd bo'lgan shaxsga aylantirishga qaratilganida namoyon bo'lmoqda⁸.

Globalashuv jarayoni ijtimoiy hayotning barcha sohalariga ta'sir qilib, alohida mamlakatlarni jahon xamjamiyatiga bog'laydi. Natijada yangi bozorlar (kapital, valyuta bozori, sug'urta bozori vahokazo), yangi vositalar paydo bo'ladi (turli axborot tizimlari, internet, uyali aloqa). Bular esa, o'z navbatida, yangi nazorat vositalarini talab etadi. Bugungi kunda iqtisodiy hamkorlik, intellektual mulk, internetdan foydalanish sohalarida yangi xalqaro me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilib, mamlakatlarning ichki qonunlari ham ularga moslashtirib borilmoqda.

Globalashuvning quyidagi asosiy belgilari mavjud: xalqaro savdoning kengayishi va erkinlashishishi, xalqaro kapital aylanmasi va uning yo'lidagi to'siqlarning bartaraf etilishi, elektron kommunikatsiya inqilobi natijasida moliyaviy munosabatlarda sodir bo'lgan chuqur o'zgarishlar, transmilliy korporatsiyalar faoliyatining kengayishi, xalqaro moliyaviy va iqtisodiy institutlarning tashkil topishi.

Jahon miqyosidagi bunday umumiy taraqqiyot:

- odamlar dunyoqarashi o'zgarishi, kommunikatsiyalar yuksalishi, xalqaro munosabatlar rivoji odamzod hayotiga ta'sirni kuchaytiradi
- davlatlar va xalqlar o'rtasida birlashishga intilishni kuchaytirgan, ayni vaqtda milliy xususiyatlar, an'analar va ma'naviy merosni saqlab qolish orqali mustaqid siyosiy tamoyillarni ishlab chiqish zarurligini ham ko'rsatib berdi.

^{8 8} I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent, ma'naviyat, 2008

Bugungi ahvol xalqaro tashkilotlardan eng yirik muammolarga ahamiyat berishni, jarayonlar ichiga kirib borishni, ta'sir doirasini kengaytirishni talab etmoqda. Biroq chuqurroq fikr yuritilganda. "globalizatsiya" jahon taraqqiyotiga ko'rsatadigan ijobiy ta'sir bilan bir qatorda chuqur tafovutlarni ham o'z ichiga oladiki, bu tafovutlarni e'tiborga olmasa, ular insoniyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tashqi iqtisodiy xavfsizlik—shartnomalar va institustional tuzilishni amalga oshirish borasidagi barcha xalqaro shartlar majmuasi bo'lib, unda xar bir jahon hamjamiyatidagi a'zo davlatning erkin saylash va o'zining ijtimoiy–iqtisodiy taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqishi, tashqi bosimga uchramasligi, boshqalarni ishiga aralashmasligi, o'zaromanfaatli va o'zaromuvofiqlik asosida jahondagi boshqa davlatlar bilan hamkorligi.

Globalashuv sharoitida tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun quyidagilar taqoza etiladi:

Birinchidan, jahon xo'jalik aloqalarida ishtirok etib, milliy ishlab chiqarish uchun qulay sharoitlar yaratish;

Ikkinchidan, jahonda sodir bo'layotgan iqtisodiy, siyosiy noxush hodisalar salbiy oqibatlarining milliy iqtisodiyotga ta'sirini kamaytirishga erishish. Alohida ta'kidlash joizki, ochiq iqtisodiyot sharoitida tashqi tahdidlar ta'siririni butunlay yo'q qilish, unga barham berish mumkin emas.

Iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi tashqi omillarga quyidagilar kiradi:

1)Eksport tarkibidagi xom ashyo tovarlarining ustuvorligi, an'anaviy mashinasozlik va harbiy sanoat tovarlari bozorlarining yo'qotilishi;

2)mamlakatning ko'p turdagi mahsulotlar, shu jumladan, strategik ahamiyatdagi va oziq-ovqat mahsulotlari iportiga qaramligi;

3)eksport va valyuta nazoratining yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi, bojxona chegaralarining ochiqligi;

4)raqobatga bardoshli eksportni qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy, tashkiliy va axborot infratuzilmalarning rivojlanganligi va import tarkibining rastional emasligi;

6)eksport-import operastiyalariga xizmat ko'rsatuvchi transport infratuzilmalarining rivoj topmaganligi;

7) Ilmiy salohiyat oqimi;

8)Kapital oqimi;

9)Tashqi qarzlarning o'sishi;

10)Tijorat va iste'mol mollari bo'yicha import qaramlikning ortishi;

11)Iqtisodiyotning haddan tashqari ochiqligi;

12)Milliy tovarlarni ichki va tashqi bozorlardan siqib chiqarish maqsadida chet el kapitallarini jalb qilish.

Eksport tovarlariga narxlarning keskin pasayib ketishi yoki aksincha, import tovarlariga narxlarning keskin ko'tarilib ketishi tashqi bozorga bog'liq bo'lgan iqtisodiyot uchun o'ta xavfli hisoblanadi.

Bundan tashqari, bozorlarda savdo qilish yoki mahsulot etkazib beruvchi mamlakat yoki mamlakatlar guruhi tomonidan embargo kiritilishi ham iqtisodiyotning rivojiga xavf tug'diradi. Shuningdek, bir mamlakatdan yoki mamlakatlar guruhidan ayrim turdagi mahsulotlarni keltirishda yuqori darajadagi qaramlikka, bog'liqlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Chunki bu iqtisodiy qaramlikdan siyosiy jihatdan ta'sir ko'rsatishdan foydalanishlari mumkin.

Milliy iqtisodiyot uchun uning eksporti tarkibida ikki-uch xil tovarning ustuvor o'rinni egallashi, xatto eksport hajmining yarimidan ko'pini tashkil etishi o'ta xavfli holatlarni tug'dirishi mumkin. Ko'pgina

rivojlanayotgan mamlaklar tajribasi shuni ko'rsatadiki, eksportning bunday tarkibi bunday tarkibi jahon bozori kon'yukturasi yomonlashgan sharoitda, ularga bo'lgan talabning kamayishi oqibatida iqtisodiyot halokatiga olib kelishi mumkin.

Mamlakat eksport qilayotgan xom ashyo resurslarining jahon bozridagi narxlarning tushib ketishi oqibatida uning tashqi savdo aylanmasi pasayib ketadi. Natijada, valyuta tushumi kamayadi va bu hol mamlakat uchun zarur investitsiya loyihalarining bajarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Hatto milliy valyuta qadring tushib ketishiga ham olib kelishi mumkin. Shuningdek, xom ashyo ishlab chiqaruvchi milliy korxonalarining iqtisodiy-moliyaviy ahvoli yomonlashadi. Ularning ba'zilari xonavayron bo'ladi, ko'pchiligi esa ishlab chiqarish hajmini kamaytirishga majbur bo'ladi. Oqibatda, ish bilan band xodimlar soni qisqarib, ishsizlar soni oshadi. Davlat byudjetidan aholini ijtimoiy himoyalashga ajratilgan mablag' ko'payib, ijtimoiy muammolar ham birmuncha keskinlashadi. Milliy iqtisodiyotning rivojlanish sur'atlari sekinlashadi yoki turg'unlikka, tanglikka yuz tutadi.

Ochiq iqtisodiyotga o'tish o'ta darajadagi protekstionizmdan voz kechishni taqazo etadi. Ammo mamlakatni jahon xo'jaligiga kirib borishi nuqtai nazaridan istiqbolli bo'lgan tarmoqlar va ishlab chiqarisharni himoya qilish, ya'ni selektiv protekstionizm zarurdir. Bu davrda iqtisodiy xavfsizlik nuqtai nazaridan vatanimizda ishlab chiqarilgan tovarlarni sotish bozorlarini, import xom ashyo va sanoat mahsulotlari manbalarini diversifikastiyalash, ko'plab mamlaklar bilan yomonlashgan munosabatlar o'rniga boshqa mamlaklar bilan bo'ladigan iliq munosabatlar rivojlantiriladi.

Iqtisodiyot chuqur krizisga uchragan va kaptal mablag'larni unga jalb qilish keskin kamayib ketayotgan sharoitda xorijiy investitsiyalar ba'zi sohalarda iqtisodiy o'sish katalizatori bo'lishi mumkin. Bu esa iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashga imkon beradi. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmi xorijiy hamkorarning moliyaviy va moddiy resurslarini milliy iqtisodiyotga real kiritishga undashi lozim. Ular tomonidan moddiy boyliklarni arzon narxlarda ko'lab sotib olishga yo'l qo'yish mumkin emas. Shunday qilib, xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotga keng jalb qilish choralarini ko'rish bilan bir qatorda, bu jarayonlarni tartibga solish ham darkor. Bunda milliy manfaatlarga rioya qilgan holda, xorijiy kompaniyalarning minimal mablag'lari evaziga butun bir tarmoqlar ustidan o'z nazoratini o'rnatishlariga yo'l qo'ymaslik lozim bo'ladi.

Butun dunyoda milliy valyuta qadri mamlakat iqtisodiy ahvolidan indikatorini hisoblanadi. Mamlakatdan moliyaviy mablag'larning katta miqdorlarda chiqib ketishi, ya'ni "kapitalning qochishi" milliy iqtisodiy xavfsizlikka jiddiy tahdiddir. Mablag'larning chetga chiqib ketishining legal, ya'ni ochiqdan-ochiq yo'li tijorat banklari tomonidan xorijiy banklar hisobi shetlariga katta miqdordagi mablag'larning o'tkazilishi hisoblanadi. Mablag'larning chetga chiqib ketishining noqonuniy, ya'ni yashirin yo'llarga esa quyidagilar kiradi:

-eksport mahsulot narxining pasaytirib, importda oshirib ko'rsatish. Bunda fiktiv va haqiqiy narx o'rtasidagi farq xorijiy kompaniya

lar tomonidan vatanimizdagi ishbilarmonning xorijiy bankdagi shetiga o'tkaziladi;

-import uchun "avans" o'tkaziladi, ammo import sodir bo'lmaydi va h.k.

Global muammolarning kelib chiqishi, mavjudligi va hal etilishi zarurati insoniyat jamiyati yangi sivilizatsiyaviy sifat o'zgarishini taqozo etmoqda. Bu jarayon mohiyatini anglash uchun uning jadalligiga, chuqurligiga va miqyosiga e'tibor berish lozim. Zero, o'nlab va hatto yuzlab yillar davomida o'zgarmas bo'lib ko'ringan ijtimoiy munosabatlar g'oyat qisqa vaqtda tubdan o'zgarmoqda. Bu hol kishilar hayoti qatlamlarining barcha bo'g'inlarida ko'rinmoqda. Ko'lamiga ko'ra, bu jarayon biron mintaqani chetlab o'tmagan.⁹ Xo'sh, bu qanday sivilizatsiya bo'ladi? Hozirgi dunyoda qadriyatlarning barcha sohalarda ahamiyati tan olingan va qabul qilayotganini o'rgatgan futurolog-mutaxassislar axborot-texnikaviy yoki axborot -kompyuter sivilizatsiyasi haqida bashorat qilmoqdalar.

Natijada "axborotlashgan jamiyat" tushunchasi vujudga keldi. Axborot tushunchasi dunyoqarashni ifodalaydigan bilimlarda qadimdan mavjud bo'lgan. Kibernetikaning kelib chiqishi va rivojlanishi bu tushunchani «aloqa» va «boshqaruv» tushunchalari bilan birga keng qo'llashishiga olib keldi. Hozirgi vaqtda axborotlarni hosil qilish, qayta ishlash, saqlash, ko'paytirish va tarqatish, alohida ilmiy soha — informatika (lotinchada tanishtirish, tushuntirish, sharq tillarida «xabar», «axborot») sohasini tashkil etadi.

Axborotlar sohasining tez sur'atlar bilan o'sishi, uni avtomatlashtirish usullarining rivojlantirilishi kompyuterlarning yaratilishiga va kishilar hayotining turli sohalarini kompyuterlashtirishga olib keldi. Bu esa, o'z navbatida, kelajakda "axborotni jamiyat" nazariyasini maydonga keltirdi.

⁹ Отамуродов С. Глобаллашув ва миллат. (Сиёсий –фалсафий таҳлил), -Т.: Яни аср авлоди, 2008.-Б. 27

Axborotli jamiyat nazariyasi hozirgi zamon industrial jamiyat to'g'risidagi ratsional ta'limotlar (Dj. Bell, U. Rostou, 3. Bjezinskiy va boshqalar) doirasida ilgari surilgan. Uning mualliflari O.Toffler, E.Ma'suda, Dj. Pelon, Dj. Martin vaboshqalar hisoblanadi. BU mualliflar insoniyat hayot tarzi modelini an'anaviy – industrial (sanoatlashgan) va postindustrial ko'rinishda qarab, so'ngi bosqich kelajagini axborotli-texnikaviy yoki axborotli-texnikaviy yoki axborotli –ekologiyaviy tarzda yuz berishini bashorat qilganlar.

Hozirgi vaqtda texnika va texnologiya ko'p jihatlardan fan mahsuli hisoblanadi. Fan esa inson yaratgan ma'naviy qadriyatlardan eng oliysi bo'lib, unga berilgan baholar hamisha bir-biridan keskin farq qilishiga qaramay, tegishli axborotlar ifodasi sifatli ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydi. Gexnologiya fanning uskunaviy vositasi hisoblanadi. Texnologiyaviy vazifalarni hal etishda ilmiy yutuqlardan foydalanishning o'rni ham beqiyos.

Mamlaktning nafaqat iqtisodiy, shuningdek, siyosiy ahvoliga ham jiddiy xavf tug'diruvchi tahdidlardan bir tashqi qarz muammosidir. Tashqi qarzning yuqori darajadiligining o'ziyoq tashqi siyosat yuritishni shubha ostiga qo'yadi. Mamlakat qarz bergan yirik kreditor mamlaktlarga qaram bo'lib qoladi. Tashqi qarzlarni to'lash uchun mamlakt qarzlardan kreditlarni belgilangan muddatlarda to'lashni kafolatlaydigan ishlab chiqarish loyihalarini moliyalashtirishda foydalanishi hamda yangi ob'ektlarni ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksportini kengaytirish mumkin.

Ko'rinib turibdiki, globallashuv sharoitida davlat iqtisodiy manfaat va xavfsizlikka tahdidni aniqlab, ularning oldini olish uchun iqtisodiy siyosat, maqsad va strategiyalarini ishlab chiqarishi naqadar muhim masalardan bir ekanligi.

2.2 O'zbekiston respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining qonuniy asoslari.

Ayni paytda yurtimizda milliy tiklanish jarayoni qariyb bir yarim asr davom etgan ijtimoiy-siyosiy qaramlikdan keyin dastlabki paytlarda mutlaqo tabiiy ravishda o'ziga xos «in-korni inkor» qonuniyati asosida kechganini aytish lozim. Lekin biz sobiq tuzumning mafkuraiy qarashlarini umuman inkor etishning o'zi hech qanday bunyodkorlik dasturiga ega bo'lmagan siyosiy va madaniy ekstremizm xavfini tug'dirishi ehtimolini yaxshi anglar edik. Shu bilan birga, tarixiy qadriyatlar, urf-odat va an'analar, turmush tarziga orqa-oldini o'ylamasdan, yoppasiga betartib qaytish boshqa bir keskinlik, deylik, bugungi davr hayotini qabul qilmaslik, jamiyatni yangilash zaruratini inkor etg'sh kabi nomaqbul holatlarga olib kelishi mumkinligini ham unutmaslik zarur edi¹⁰.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining jahon iqtisodiyoti bilan, ichki bozorning tashqi bozor bilan o'zaro xamkorligi uchun sifat jihatdan yangi negizlar ishlab chiqish shakllantirish tub bozor o'zgartirishlarini amalga oshirish izchil ravishda tashqi iqtisodiy faoliyatni kuchaytirishni taqozo etmoqda. Bularning barchasi O'zbekistonning yangi tashqi iqtisodiy faoliyatini va uni ro'yobga chiqarish mexanizmini ishlab chiqishni talab etdi. Bozor munosabatlariga va mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha korxonalariga tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq o'z ishlarini bajara olishi uchun sharoitlar yaratib berilmoqda. Bu borada prezidentimiz : «... korxonalarni modernizastiya qilish, texnik va texnologik qayta jixozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish muxim ahamiyatga ega. Bu vazifa

¹⁰ I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent, ma'naviyat, 2008

avvalambor iqtisodiyotning asosiy tarmoklari, eksportga yo'naltirilgan va mahalliyashtiriladigan ishlab chiqarish quvvatlariga tegishlidir»¹¹ deganlar. Jahon iqtisodiyoti globallasib borayotgan bir paytda, mamlakatimiz bozor iqtisodiyoti munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tib borar ekan, barcha sohalarda islohotlar o'tkazilmoqda, xususan, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida eksport salohiyatini oshirish va o'zbek korxonalarini mahsulotlarining dunyo bozoriga muvaffaqiyatli kirib borishini ta'minlash uchun tashqi savdoni erkinlashtirish, shuningdek bu faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash uchun bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xorijiy investitsiyalarni mamlakatimizga jalb qilish bozor munosabatlarini rivojlantirishda va samarali iqtisodiy siyosatni olib borishda muhim rol o'ynaydi.

Bu borada iqtisodiyot tizimidagi mavjud muammolarni hal qilish, kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan modernizatsiya qilish, eksport salohiyatini oshirishda eksport tarkibini diversifikatsiya qilish dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq respublikamiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining iqtisodiy muassasalari : Jaxon banki, Xalqaro valyuta fondi, Xalqro moliya korporatsiyasi, Xalqaro mehnat tashkiloti kabi xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lib kirdi. Jahon iqtisodiyoti globallasuvi, mamlakatimiz bozor iqtisodiyoti munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tib borishi sharoitida barcha sohalar qatori tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida ham islohotlar o'tkazilmoqda, jumladan mamlakat eksport salohiyatini oshirish va o'zbek korxonalarini mahsulotlarining dunyo bozoriga muvaffaqiyatli kirib

¹¹ I.A.Karimov. Jaxon moliyaviy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. O'zbekiston. Toshkent. 2009 y

borishini ta'minlash uchun tashqi savdo sohasini erkinlashtirish bilan birga, bu faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tadbirlari amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan modernizatsiya qilish, eksport salohiyatini oshirish, eksport tarkibini diversifikatsiya qilish dolzarb masalalardandir. Mustaqillik yillarida tashqi iqtisodiy faoliyatning xuquqiy asoslarini yaratish bo'yicha qator tadbirlar amalga oshirildi.

Tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlovchi qonunlarlar quyidagi prinsteplarni tan olish orqali yangi qonunlar ishlab chiqariladi:

- Erkin iqtisodiy taraqqiyot yo'lini tanlash;
- O'z mamlakatining iqtisodiy salohiyati va tabiiy resurslari ustidan suvereniteti;
- Erkin iqtisodiy, moliyaviy, ilmiy-texnikaviy rivojlanish va boshqa davlatlararo tinch munosabatlarni o'rnatishga qaratilgan o'zaromanfaatli hamkorlik;
- Iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy progress maqsadidagi xalqaro hamkorlik;
- Jahon hamjamiyatidagi kam rivojlangan mamlakatlarga nisbatan imtiyozlar berish;
- Kuch va tahdid ishlatmagan holda iqtisodiy nizolarni tinch yo'l bilan tartibga solish;

O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyati davlat tashqi siyosatining tarkibiy qismi sifatida davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari va normalariga

asoslangan holda amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasini rivojlantirishga qartilgan O'zbekistonning huquqiy baza xususida alohida to'xtalish o'rinlidir. 90-yillar oxirlarida boshlangan mamlakat iqtisodiyotini erkinlashtirish oldiga yangi talablarni qo'ya boshladi. Ma'lumki, O'zbekistonda 1991 yilga qadar Tashqi savdo vazirligi mavjud bo'lmagan va bevosita import operastiyalar markazlashgan tarzda sobiq ittifoq Tashqi Savdo vazirligi va Stentrosoyuz tomonidan amalga oshirilgan. Sobiq ittifoqdagi mavjud narxlar tizimi, O'zbekiston iqtisodiyotining asosan xomashyo va agrar mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashganligi natijasida ko'pgina oziq-ovqat mahsulotlari va hatto kundalik iste'mol mollari bo'yicha markazdan ta'minlash, qaramlik mavjud edi.

Shuning uchun mustaqillikning ilk davrida, moliya, pul, kredit operastiyalari bo'yicha markazga bog'liqlik, tashqi savdoga ko'mak beruvchi infratuzilmaning deyarli yo'qligi (bojxona, sug'urta, transport, sertifikastiya xizmatlari va h.k.), malakali mutaxassislar va amaliy ko'nikmaning etishmasligi sharoitida, mustaqil davlatning tez oradagi o'z tashqi savdo aloqalarini shakllantirishi va jadal sur'atlar bilan rivojlantirishi o'ta mushkul edi.

Mamlakatimiz hukumati mustaqillik bosqichidagi tashqi savdo va iqtisodiy aloqalarni keng ko'lamda va xalqimiz uchun manfaatli yo'nalshda rivojlanishga alohida e'tibor qaratadi. 1991 yil "O'zintorg" davlat tashqi savdo kompaniyasi, so'ngra 1992 yil Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi, uning tarkibida tashqi savdo kompaniyalar tashkil etildi. Bojxona organlari shakllantirilib, bojxona xizmati tashkil etildi. Mamlakat iste'mol bozorida taqchillikka barham berish, iqtisodiy inqirozga yo'l

qo'ymaslik va bozor munosabatlariga asoslangan mustaqil iqtisodiyotni shakllantirishga yo'naltirilgan import siyosati amalga oshirildi.

Dastavval kundalik iste'mol mollari: un, shakar, o'simlik yog'i, kir yuvish vositalari, yoqilg'i-moylash materiallariga bo'lgan talabni qondirish maqsadidagi sa'y-harakatlar o'z samarasini berdi. Aytish joizki, O'zbekiston o'z milliy valyutasini muomalaga kiritmasdan avval (1994 yil 1 iyulga qadar) tashqi savdo operastiyalarini keng ko'lamda amalga oshirish imkoniyati yo'q edi.

1991-1994 yillar mobaynida O'zbekiston import siyosatida tovar va kreditlar asosida aholi kundalik hayoti uchun zarur bo'lgan iste'mol mollari xarid etish va sanoat tarmoqlarini yoqilg'i, xomashyo, butlovchi qismlar bilan uzluksiz ta'minlashga qaratilgan tadbirlar amalga oshirildi.

1994-1996 yillar mobaynida O'zbekiston eksport va import operastiyalarini keng ko'lamda amalga oshirish xorijiy investistiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan qonunlar, me'yoriy xujjatlar ishlab chiqildi. Xo'jalik yurituvchi barcha sub'ektlarni tashqi savdo operastiyalarida ishtirok etishi uchun tegishli chora-tadbirlar amalga oshirildi. 1995-1996 yillar mobaynida joriy operastiyalar bo'yicha valyuta alashtirish va o'zaro to'lovlardagi cheklovlar bekor qilindi, veksel tizimi joriy etildi. 1995 yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2 apreldagi "Eksport-import operastiyalarini tartibga solishdagi qo'shimcha chora-tadbirlar" hamda 1995 yil 19 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada erkinlashtirish" to'g'risida farmonlar qabul qilindi.

1996 yilda O'zbekiston tashqi savdo oboroti qariyb 9,2 ming AQSh dollari hajmida qayd etildi. Lekin xususiy tadbirkorlik doirasida tashqi savdo operastiyalarini uyushtirishda jiddiy kamchiliklar uchray boshladi.

Sanoat va agrar sohalarda iqtisodiy o'sish sur'atlari birmuncha yuqori bo'lsada, eksport salohiyatini yaqin kelajakda yuksaltirish, uni deversifikastiyalash, tashqi qarzdorlikni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash zarurati tug'ildi.

Shu tufayli 1996 yilda import operastiyalarini tartibga solish uchun huquqiy baza takomillashtirildi, import bojxona rejimini shakllantirishda iqtisodiy o'sish va iqtisodiyot tarmoqlari, hududlar iqtisodiy rivojlanishida mutanosiblikni ta'minlash qaratilgan tashkiliy, iqtisodiy tadbirlar amalga oshirildi.

Mazkur yo'nalishda qator qonunlar qabul qilindi. Xususan, "Valyutani tartibga solish to'g'risida", "Xorijiy investistiyalar to'g'risida", "Bojxona Kodeksi", "Bojxona tarifi to'g'risida", "Bojxona xizmati to'g'risida", "Soliq kodeksi", "Erkin iqtisodiy zonalar", "Investistiya faoliyati to'g'risida", "Tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi qonunlar shular jumlasidandir. Bundan tashqari, Markaziy Bank, Moliya Vazirligi, Bojxona va Soliq qo'mitasi, Adliya vazirliklar import operastiyalari bilan bog'liq jarayonlarni tartibga soluvchi Qoida va Nizomlarni ishlab chiqdilar.

O'zbekiston xorijiy investistiyalarni jalb etish va ko'ngilli eksport-import rejimini joriy etish bo'yicha yildan yilga qator imtiyozlar berilmoqda. 1994 yil 1 martdan boshlab eksport listenziyasi olinishi lozim bo'lgan tovarlar nomenklaturasi miqdori 74 tadan 26 taga tushirildi. Undan so'ng 2 yil mobaynida listenziya talab etiladigan tovarlar nomenklaturasi 26 tadan 11 taga va keyinchalik 4 taga tushirildi. Shu tariqa 1997 yil oxiridan boshlab eksport uchun listenziya talab etiladigan tovarlar soni 4 tani tashkil eta boshladi.

Investistiya faoliyatini boshqarish va qo'llab-quvvatlash tizimi ko'p sonli qonunchilik-huquqiy va me'yoriy hujjatlardan iborat va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Qonunlar va mamlakat Prezidenti farmonlari;
- Respublika hukumati qarorlari va dasturlari;
- Ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy rivojlanishning kompleks va davlat dasturlari;
- Hukumatlararo shartnomalar va bitimlar;
- Vazirlik va idoralarning nizomlari, yo'riqnomalari, standartlari, qoidalari va hokazo;
- Hududiy bo'g'inlar va xo'jalik subektlari doirasida amal qiladigan nizomlar va ustavlar.

Investistiya faoliyatiga oid asosiy hujjatlar: "Investistiya faoliyati to'g'risida" (1998 y.); "Xorijiy investistiyalar to'g'risida" (1998 y.); "Xorijiy investorlar huquqlarini himoya qilish kafolatlari va choralari to'g'risida" (1998 y.); "Tadbirkorlik to'g'risida" (1991 y.); "Garov to'g'risida" (1992 y.); "Lizing to'g'risida"gi qonunlar va hokazolar.¹²

Agar qonunlarda u yoki bu turdagi faoliyat yuritishning umumiy tamoyillari, shartlari va shakllari belgilansa, turli faoliyat turlari huquqiy asoslarining keyingi aniqlashtirilishi, chuqurlashtirilishi va kengaytirilishi Prezident farmonlari, respublika hukumatining qarorlari orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Germaniya, Hindiston, Janubiy Koreya, Turkiya, Indoneziya, Malayziya, Isroil, AQSh va bir qator boshqa mamlakatlar bilan investistiyalarni rag'batlantirish va o'zaro himoyalash to'g'risida bitimlar tuzdi.

¹² www.Google.uz

Yuqoridagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilashga va uning iqtisodiyotga investitsiya joylashtirish hajmlarini oshirishga yunaltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 22 martdagi PF-3594-sonli farmoniga muvofiq quyidagi mezonlarga javob beruvchi chet el, sho'ba va qo'shma korxonalar chet el investitsiyasi bo'lgan ishlab chiqarish korxonalarini qatoriga kirishi belgilab qo'yildi: ustav jamg'armasi miqdori 150 ming AQSh dollaridan kam bo'lmagan korxonalar; korxonada ishtirokchilaridan biri albatta chet el yuridik shaxsi hisoblangan; korxonaning ustav faoliyatida o'z ishlab chiqarishi yoki ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar servis xizmat hissasiga xo'jalik faoliyatidan tushumlar umumiy hajmining 60% dan ko'prog'i to'g'ri keladigan korxonalar.

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar qatnashgan korxonalar ichida qo'shma korxonalar etakchi o'rinda turadi. To'liq xorijiy investitsiyalar bilan tashkil etilgan korxonalar kam. Ko'pchilik davlatlarda xorijiy investitsiyalar qatnashgan korxonalarni ruyxatdan o'tkazish har xil. Ba'zi davlatlarda bu vazifani Moliya vazirligi bajarsa, boshqalarida Adliya vazirligi bajaradi. O'zbekistonda bu vazifani Adliya vazirligi amalga oshiradi.

Investor o'zi kiritgan investitsiya ob'ektlari va natijalariga egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish huquqiga ega. Shu bilan birga reinvestitsiya va savdo operatsiyalarini O'zbekiston hududida milliy qonunchilik asosida, undan tashkarida esa xalqaro qonunlar asosida amalga oshirish huquqlariga ega. Xorijiy investorlar va korxonalar qonunchilikda ko'rsatilgan holatlarda er uchastkalarini sotib olishlari

mumkin. Xorijiy investorlar investitsiya faoliyatini amalga oshirishda quyidagilarga rioya etishlari zarur:

- O'zbekiston Respublikasi hududida amal qilayotgan qonunchilikka amal qilish;
- O'zbekistonda mavjud qonunchilik talablari asosida soliq to'lash va boshqa tulovlarni amalga oshirishi;
- Investitsiya loyihasining sanitariya-gigienik ekologiya talablariga amal qilish bulimidagi ekspertiza xulosalarini olishi;

Xorijiy investorlarga qonuniy faoliyat natijasida olgan foydalari va boshqa daromadlarini biror-bir cheklovlarsiz istalgancha chet davlatga o'tkazish imkoniyati kafolatlanadi. Bundan tashqari, xorijiy investorlar Respublika banklarida hech bir cheklovlarsiz istalgan valyutada hisob raqamiga ega bo'lishlari mumkin.

Xorijiy investitsiyasi bo'lgan korxonalar amaldagi qonunlarga binoan o'zi ishlab chiqargan mahsulotni litsenziyasiz eksportga chiqarish va o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun zarur mahsulotlar importini amalga oshirish huquqiga egadir. Barpo etilayotgan korxonalar ustav sarmoyasiga xorijiy investorlarning hissasi sifatida yoki xorijiy hodimlarning o'z ehtiyojlari uchun olib kirilayotgan mulk bojxona to'lovidan ozod qilinadi va import solig'i undirilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 10 oktyabrdagi "Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning eksportini rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmon asosida Adliya vazirligi tomonidan 1998 yil 28 mayda O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan tashqari savdo uylar, savdo vakolatxonalar, sho'ba korxonalar, firma do'konlari, dillerlar tarmoqlari va konsignatsiya omborlarini ochish tartibi to'g'risidagi Nizom qabul qilindi.

Milliy ishlab chiqarish korxonalarining eksportiga ko'mak berish uchun bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, Vazirlar mahkasining 1998 yil 21 apreldagi "Milliy eksport qiluvchilarni sug'urtalashni ta'minlash chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlar asosida eksport yuklarini tashishda va sug'urtalashda xalqaro huquqiy normalarga mos bo'lgan Inkotermos-2000 qoidalariga muvofiq amalga oshirilishi belgilandi. Eksport ko'mak ko'rsatuvchi infratuzilmaning shakllanishi va rivojlanishi uchun puxta zamin yaratildi.

2000 yilning may oyida Oliy Majlis tomonidan "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Unda bu sohada qonun yaratish faoliyati uchun asos bo'ladigan tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarishning ma'muriy usullaridan iqtisodiy usullari ustuvorligi metodologik tamoyil sifatida aniq belgilanadi va davlat organlarining tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlari ishiga aralashuvi man etiladi.

Yangi tahrirdagi Qonun moddalari mamlakat qonunchiligida yuz bergan o'zgarishlar, tashqi savdo rejimini erkinlashtirish vazifalari hamda boshqa tahririy tuzatishlar va qo'shimchalar evaziga yangilanadi. Jumladan, tashqi iqtisodiy faoliyat turlariga aniqlik kiritildi. Amaliyotda mazkur qonundan foydalanishni soddalashtirish maqsadida undagi asosiy atamalar va tushunchalar xalqaro huquqda e'tirof etilgan atamalarga moslashtirildi.

Yangi tahrirdagi "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonunga erkinlashtirish talablariga mos yangi qoidalar kiritildi. Jumladan, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining o'z huquq va manfaatlariga tegishli axborotlarga ega bo'lish, xorijiy jismoniy shaxslarning O'zbekiston hududida korxonalar ochish huquqi, tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligida ro'yxatga olish talabi

chiqarib tashlandi. Bundan tashqari, mazkur Qonunda Vazirlar Mahkamasi va Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligining asosiy vakolatlari aniq belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashqi iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish, xorijiy investistiyalarni jalb qilish, qo'shma tadbirkorlikni rivojlantirish va mustahkamlashga yo'naltirilgan quyidagi: "Xorijiy investistiyalar ishtirokidagi korxonalarni tashkil etish va faoliyatini rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, "Xorijiy investistiyalar ishtirokidagi korxonalar beriladigan qo'shimcha rag'batlantirish va imtiyozlar to'g'risida"gi (1996 yil 30 noyabr), "Xorijiy investistiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar eksportini rag'batlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi (1997 yil 26 iyun), "Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni eksport qilishni rag'batlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi (1997 yil 10 oktyabr), "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 30 noyabrdagi "Xorijiy investistiyalar ishtirokidagi korxonalar berilayotgan rag'batlantirish va imtiyozlar to'g'risida"gi Farmoniga qisman o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi (1998 yil 27 mart), "Eksport mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi (5 may 2000 yil), "Neft va gazni qidirib topish va qazib olishda to'g'ri xorijiy investistiyalarni jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (28 aprel 2000 yil) Farmonlari e'tiborga loyiqdir.

Xorijiy investistiyalarning ortishi va tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida O'zbekistonning tashqi savdo oborotida ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Bu, albatta, yaratilgan ko'ngilli huquqiy, me'yoriy hujjatlarning muayyan maqsadlarga yo'naltirilganligi, ochiq iqtisodiyot sari og'ishmay yo'l

tutayotganligidan dalolatdir. Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan “Tashqi iqtisodiy faoliyat”, “Chet el investistiyalari to’g’risida”gi, “Chet el investorlari huqularining kafolatlari va ularni himoya qilish chora-tadbirlari to’g’risida”gi, “Investistiya faoliyati to’g’risida”gi Qonunlar bevosita qulay va ko’ngilli investistion muhitni shakllantirish, milliy korxonalar eksport salohiyatini yuksaltirishga yo’naltirilgan. Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida eksportga yo’naltirilgan bozor infratuzilmalarini rivojlantirish, jahon tovar va xizmatlar bozori talablariga tez moslasha oladigan epchil va moslashuvchan korxonalarni vujudga keltirish, institutstional o’zgarishlarni amalga oshirish o’ta muhimdir.

O’zbekiston Rnspublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 sentyabdagi 416-sonli “Eksport-import operastiyalari monitoringini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qaroriga muvofiq yagona elektron informastion tizim joriy etilib, ushbu operastiyalar monitoringida Bojxona qo’mitasi, Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi (hozirgi kunda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investistiyalar va savdo vazirligi), Markaziy bank va boshqa ushbu jarayonga aloqador tashkilotlarning ma’sulyati yanada oshirildi. Eksport-import operastiyalarini amalga oshirishdagi ortiqcha rasmiyatchilik va ma’muriyatchiliklarga barham berish choralari belgilandi. Jumladan, “Import kontraktlarini hisobga olish va tashqi savdo operastiyalari bojxona monitoringini amalga oshirish tartibi to’g’risidagi Nizom”da import bitimlarini banklarda 7 ish kuni mobaynida belgilangan sxema asosida hisobga olinishi uchun zarur bo’lgan hujjatlar ro’yxati aniq belgilab berildi. Bundan tashqari, tashqi savdo operastiyalari bo’yicha tuziladigan bitimlar (kontraktlar) bandalarining mazmuni qay darajada

aniq bo'lishi, import tovarlarining xalqaro, milliy standartlash tizimiga mos yagona elektron informastion tizimi (TSO-YaEIT)ga kiritilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar, rekvizitlar aniq belgilab berildi¹³.

Umuman olganda, mazkur Qaror asosida O'zbekiston eksport-import operastiyalari monitoringini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida olib borish, ularda hisob-kitob jarayonlarini nazorat qilish imkoni yaratildi. Bu esa, eksport-import operastiyalarni samarali tashkil etishning aniq hisobini yo'lga qo'yish va kamchiliklarni bartaraf etish imkonini beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 1995-2006 yillar mobaynida import operastiyalarini tartibga solish, tegishli tashkiliy, iqtisodiy yo'nalishdagi o'zgarishlarni kiritishga oid 50dan ortiq Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Davlat Bojxona Qo'mitasi, Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi, Markaziy bank tomonidan ishlab chiqilgan Nizom va me'yoriy qoidalar qabul qilingan. Uning aksariyati bevosita import operastiyalarining yo'nalishi, mazmuniga aloqador bo'lmasa-da, bilvosita investistiyalarni jalb etish, valyuta va to'lov intizomini takomillashtirish, bojxona nazorativa hisoini samarali tashkil etish va boshqa yo'nalishlarga oid hujjatlar hisoblanadi.

Shu o'rinda ta'kidlash o'rinliki, yildan yilga tashqi savdo operastiyalari, xususan, import operastiyalarini erkinlashtirish bilan bog'liq qator chora-tadbirlar ko'rilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 26 sentyabdagi 3327-sonli "O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo faoliyatini yanada erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga asosan Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligida import operastiyalarini ro'yxatga olish bekor qilindi.

¹³ www.Google.uz

Faqatgina davlat byudjeti, O'zbekiston Respublikasi hukumati kafolati berilgan kreditlari hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning davlat ulushi 50%dan ortiq bo'lgan yoki o'z valyuta resurslari etmagan tashkilotlarning tashkilotlarning import kontraktlargina ro'yxatdan o'tkaziladi.

Mazkur chora-tadbirlar import operastiyalariniamalga oshirishda nafaqat xaridor va sotuvchi tashkilotlar, balki ularga xizmat ko'rsatayotgan barcha bank muassasalari, transport tashkilotlari, bojxona organlarining manfaatlariga ham mos kelib, ushbu jarayondagi ortiqcha rasmiyatchilik va ma'muriyatchiliklarga barham bergan holda, import operastiyalaridagi to'lovlar, bojxona nazorati va iste'molchiga etib borgunga qadar bo'lgan barcha tadbirlarni belgilangan muddatlarda amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Yuqorida qayd etilganidek, hozirgi kunda import operastiyalari bir qator tadbirlarni, jumladan, investistiyalarni jalb etish, o'zaro to'lovlar, xizmat ko'rsatish, intellektual mulk himoyasi, iqtisodiy xavfsizlik, ichki bozor himoyasi, iste'molchi huquqi himoyasiga taalluqli masalalarni hal etishni talab etmoqda. Shu sababdan ham, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 21 iyuldagi 3151-sonli "Tashqi iqtisodiy va savdo aloqalari, xorijiy investistiyalarni jalb etish sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni asosida O'zbekistonda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investistiyalar va savdo vazirligi tashkil etildi.

Ushbu vazirlikning tashkil topishi respublika iqtisodiyotining jahon iqtisodiyotiga integrastiyalashuvi sharoitida samarali tashqi iqtisodiy siyosatning amalga oshirish, eksport-import operastiyalarini jahon andazalari va ko'p tomonlama belgilangan bitimlar talablariga yaqinlashtirish imkonini beradi. Ushbu Farmonning 3-bandiga asosan ixtisoslashtirilgan tashqi savdo kompaniyalari faoliyatini

muvofiglashtirish hamda ularning samaradorligini oshirish masalalari ushbu vazirlik zimmasiga yuklatilgan.

Umuman olganda, mazkur vazirlikning tashkil topishini ko'pgina xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar, tarkibiy o'zgarishlar, tashqi iqtisodiy aloqalarni keng ko'lamda rivojlantirish sharoitida muhim va o'z vaqtida belgilangan tashkiliy va ma'muriy islohot deb baholash mumkin.

2006 yil boshida O'zbekiston dunyoning 40 davlati bilan savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi kelishuvlarni, 35 davlat bilan esa sarmoya kiritishni rag'batlantirish va himoyalash to'g'risidagi kelishuvlarni imzoladi. Bu o'rinda ham huquqiy-shartnomaviy bazani shakllantirishda songa emas, sifatga qaratildi, ya'ni har bir kelishuv O'zbekistonning milliy manfaatlaridan va sherik davlatning o'ziga xosliklaridan kelib chiqib tayyorlandi.

Uzoq muddatli, barqaror va umum tan olingan tamoyillar asosiga qurilgan o'zaro xo'jalik hamkorligini ta'minlovchi Evropa Ittifoqi bilan iqtisodiy aloqalarni huquqiy ta'minlash orqali o'z strategik manfaatlariga erishish maqsadida, O'zbekiston ikki tomonlama shartnomalardan tashqari "Sherikchilik va hamkorlik to'g'risida"gi kelishuv doirasida savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi umumiy kelishuvni ham imzolagan va u 1998 yil iyunida kuchga kirgan.

Shuni ta'kidlash o'rinliki, 2005 yil oktyabr oyida O'zbekistonning Evroosiyo iqtisodiy hamjamiyatiga a'zo bo'lishi bilan tashqi iqtisodiy faoliyat sohalarida tub islohotlarni amalga oshirish, hamjamiyat miqiyosida erkin savdo va bojxona hududini shakllantirish, integrastion jarayonlarni yanada chuqurlashtirishga qaratilgan ko'plab huquqiy hujjatlarni qabul qilishi, hamjamiyatga a'zo mamlaktlar bilan

muvoqilashtirilgan tashqi savdo siyosatini ishlab chiqish, tashqi iqtisodiy faoliyat sohaslarini rivojlantirish zarurati yuzaga keldi.

Tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash choralar dasturi doirasida amalga oshirgan tadbirlarimiz qatorida tashqi iqtisodiy faoliyatga qaratilgan masalalar alohida e'tibor qaratilib, bu borada ta'sirchan tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, 2009 yilning o'zida eksport-import borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni¹⁴ va 2ta qarori¹⁵, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2ta¹⁶ qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining qarori¹⁷ qabul qilindi. Bu normativ hujjatlarda eksport-import borasidagi qabul qilingan farmon va qonunlarga ba'zi o'zgartirishlar kiritish, aylanma mablag'larni to'ldirish uchun tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlar ajratish hisobiga eksport qiluvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar va 2009 yilda mahsulot eksportini rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarorlarni o'z ichiga qamrab olgan. – aylanma mablag'larini to'ldirish uchun korxonalariga Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 70 foizidan ortiq bo'lmagan stavkalarda 12 oygacha bo'lgan muddatga imtiyozli kreditlar berish;

– tayyor mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, xorijiy investitsiya ishtirokida tashkil etilgan korxonalarni byudjetga barcha

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi prezidentining ayrim farmonlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi 2009 yil 21 dekabr PF 4158 son.

¹⁵ Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi 2009 yil 5 avgust, PQ 1169 son, 2009 yilda mahsulot eksportini rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida 2009 yil 8 aprel PQ 10932.

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida 2009 yil 12 avgust 230 son.

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi banklarida ochilgan bank xisoblari to'g'risidagi yo'riqnoma o'zgartirishlar kiritish to'g'risida, 2009 yil 20 iyun, 1948-1-son

turdagi soliq va to'lovlardan – qo'shimcha qiymat solig'i bundan mustasno – ozod qilish muddatini 2012 yilgacha uzaytirish;

– banklar kreditlari bo'yicha to'lov muddati o'tgan va joriy qarzlarning miqdorini qayta ko'rib chiqish, byudjetga to'lanadigan to'lovlarning penyasidan kechish va boshqa muhim imtiyoz va preferenstiyalar berish shular jumlasidandir.

O'tgan yillar mobaynida eksport qiluvchi korxonalar qo'llab-quvvatlanib, ularning barqaror faoliyati ta'minlandi. Qolaversa, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mahsulotni eksport qilish bo'yicha yuzaga kelgan vaqtinchalik qiyinchiliklarga qaramasdan, eksport qiluvchi korxonalarda ishlab chiqarishning pasayishini oldini olish imkonini berdi.

Globalashuv ochib beradigan imkoniyatlardan to'g'ri foydalangan holda, uning salbiy jihatlaridan ehtiyot bo'lish, buning uchun esa o'zimizda yuksak ma'naviyat va mafkuraviy immunitetni shakllantirishimiz bizning bugungi vazifamizdir, zero, prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, Ma'naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o'z-o'zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog'lom avlod kelajagini ta'minlash yo'lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin¹⁸.

Globalashuv sharoitida turli shakldagi, xususan, “ommaviy madaniyat” ko'rinishidagi mafkuraviy xurujlarga qarshi kurash jamiyatdagi barqarorlikni saqlashning muhim vositasidir. Bir-biri bilan chambarchas bog'liq madaniyat va ma'naviyat insonning insoniyat oldidagi, xalq oldidagi, qolaversa, o'zi oldidagi mas'uliyatidir.

¹⁸ Karimov I.A Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch – T.: “O'zbekiston”. 2008

XULOSA

Bugungi murakkab globallashuv davrida ma'naviyat sohasida vujudga kelgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma'naviyatini asrash va yuksaltirish, ayniqsa yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g'oyalar hamda mafkuralar ta'siridan saqlash, himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Hozirgi davrning dolzarb vazifalaridan biri yosh avlodni Ona vatanga muhabbat va sadoqat, milliy g'urur, yuksak axloq va ma'naviyat, qadimiy va boy ma'naviy merosimizga iftixor tuyg'usi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdir. Buning uchun yoshlarning istak va moyilliklarni e'tiborga olgan holda ularni har tomonlama yetuk va barkamol qilib yetishtirishda jahonning ilg'or tajriba va usullaridan foydalanish zarur. Prezidentimiz I.A Karimov "Yuksak Ma'naviyat-Yengilmas kuch" asarida, bu xususda alohida to'xtalib: "Agar biz ahil bo'lsak, el- yurt manfaati to'lida bir tan-u bir jon bo'lib yashasak, o'zimizdan sotqin chiqmasa, o'zbek xalqini hech kim hech qachon yenga olmaydi" degan edi.

Albatta, bugungi dunyo boshidan kechirayotgan globallashuv jarayoni va mafkuraviy jarayonlar insoniyat uchun katta-katta imkoniyatlar eshigini ochib beradiva biz buni inkor eta olmaymiz. Bunday jarayonda muammoni oldimizga aniq qo'ya olishimiz darkor, ya'ni muammoning ildizi globallashuv jarayonida emas, balki uning ta'sirida sodir bo'layotgan barcha salbiy oqibatlarga nisbatan endi taraqqiyot yo'liga kirayotgan mamlakatlar xalqlarining ayniqsa, yoshlar tomonidan uning qanday bo'sa shundayligicha qabul qilishga bo'lgan moyillikning kuchayib borayotganligidir. Bugungi kunda yoshlar ilm-fanga, atrof-muhitga, atrofda sodir bo'layotgan jarayonlarga qiziqish kuchli. Bugungi kunda barchamizning hayotimizga qay

sohada bo'lmaylik internet, jahon kinolari, turli seriallar, jurnallar, kompyuter o'yinlari qaysidir ma'noda kirib kelib ulgurgan (ommaviy madaniyat) deyish mumkin. Yoshlar bu jarayonda ko'rgan va o'zlariga yoqqan qaxramonlarninig barcha xatti-harakatlarini ma'qullaydilar, yoqtiradilar, oqlaydilar va taqlid ham qiladilar. Chunki ularda taqlid, ta'sirlanis, tormozlanishdan ko'ra kuchliroq. Natijada o'smirlar jiddiy xatolarga ham yo'l qo'yadilar. Yoshlarimiz bunday o'zlarining "arzimas" xatolarni kimlarningdir foydasiga ishlayotganini bilmaydilar.

Biz uchun axloqiy jihatdan noma'qul, milliy qadriyat va qarashlarimizga yot bo'lgan, lekin hozirgi vaqtda hayotimizga kirib borayotgan mana shunday ko'rinishlarni bamisoli yuqumli kasallik deb qabul qilishimiz lozim. Va ayni shu asosda bunday xurujlarning o'ta xavfli holat ekanini anglashimiz zarur¹⁹.

Hulosa qilib ya'na shuni aytish mumkinki davlatda davlatni faqat manfaati yotadi, hech bir davlat biron bir davlatga o'z-o'zidan yordam bermayda. Yordamni tagida faqat biror maqsad yotadi. Chunki kuchli, rivojlangan davlatlar qadimdan ham, hozirgi kunda ham kichik davlatlarga doim maddiy mablag' (qarz) beradi, bu degani yarim mustamlaka deganidir. Bu pullarni tagida katta ma'no bor. Asta-sekinlik bilan o'ziga har taraflama to'be qiladi. Bunday voqealarni yoshlarimizga qayta-qayta aytib tushuntirish darkordir deb o'ylayman.

Bugungi murakkab jarayonda dunyodagi ayrim razil kuchlar shunday ham murakkab bu jarayonni yanada murakkablashtirish obrazli qilib

¹⁹ Karimov I.A Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch – T.: "O'zbekiston". 2008

aytganda “suvni yanada loyqalatib, istalgancha baliq tutishga zo’r bermoqda”²⁰

Xususan, doimo zo’ravonlik va gegamonlik hisobidan boylik orttirib kelgan kuchlar mana shunday foydalanib, ”ommaviy madaniyat” g’oyasini keng targ’ib etmoqdalar.

Globalizm milliy davlatlar suverenitetini sezilarli darajada cheklab qo’ydi va bu jarayon kuchayib bormoqda. Cheklab chegaralash mexanizmlarini yaratish va kuchaytirish orqali vaziyatni to’laligicha nazorat qilish kabi tor va sayoz fikrlash konsepsiyasi allaqachon (kechirgan) eskirgan. Barcha sohalardagi globallashuvni ma’naviyatining ichiga olib kirish masalasida ko’p o’ylagan va o’ylayotgan davlatlar ertami-kechmi shu narsani tushunadilarki, globallashuvning ta’sir doirasiga tushunishning eng halokatli yo’lidir.

Chunki o’zini-o’zi cheklab chegaralash bilan qaloqlik domiga tushgach,baribir bu boradagi isloxlarni boshlash lozimligini anglaydi. Globalizm jumladan axborot globallashuvning mutlaqo domiga tushmaslikning chorasi mavjud emas va buning iloji ham yo’q. Eng yaxshi yo’l bu ma’lum milliy davlat ma’nfaatlarini saqlash va hamoya qilish maqsadida axborot texnologiyalarni, dasturlarini imkon qadar tezlashtirish, iqtisodiy va siyosiy soxadagi isloxlarni izchil yo’lga qo’yishdir²¹.

Shu o’rinda prezidentimizning bir gapi-“barchamizga ayon bo’lishi kerakki qaerdaki beparvolik va loqaytlik hukm sursa, o’sha dolzarb masalalar o’zbilarmonchilikka tashlab qo’yilsa o’sha yerda ma’naviyat eng ojiz nuqtaga aylanadi. Va aksincha – qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok

²⁰ Ma’naviy yuksalish yo’lida. –T:”Ma’naviyat ” 2008-yil. To’plam. I

²¹ Ma’naviy yuksalish yo’lida. –T:”Ma’naviyat ” 2008-yil. To’plam. II

va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi"²² - degan gaplari yodimga keladi. Haqiqatdan ham biz atrofimizda yuz berayotgan jarayonlarni chuqurroq taxlil qilishimiz, chet el madaniyatidan ko'r-ko'rona andoza olmasligimiz lozim. Bizning ota-bobolarimiz o'z taraqqiyot bosqichlarida o'ziga xalqlar tajribalaridan ko'r-ko'rona foydalanib yoki o'zlashtirib olishmagan. Jamiyatni davlat taraqqiyotida ma'lum o'ziga hos konsepsiyalar iglab chiqilgan. Biz ham o'z oldimizga Ozod va Obod Vatan qurishni maqsad qilgan ekanmiz, bugungi bunday murakab kunda har qanday tashqi huruj va ta'sirlarga munosib javob qaytara olishimiz, yoshlarimizda mafkuraning immunitetni shakllantirishning samarali usul va vositalarini ishlab chiqishimiz televideniya tariximiz, ota-bobolarimizning ibratli yo'llari, ma'naviy jasoratlari aks ettirilgan ko'rsatuvlar tayyorlash matbuot va barcha turdagi gazeta nashrlarida yoshlarimizning ongi va qalbiga yetib boradigan ta'sirchan sahifalar, voqelikni real aks ettiruvchi qisqa bo'lsada mazmunli, qiziqarli hayot ibratlarini yozish kerak. Vaholanki bizning targ'ibotimiz chetdan kirib kelayotgan turli safsatalar, yoshlarning ongi va qalbini zaxarlovchi internet ma'lumotlaridan zararli g'oyalardan samaraliroq bo'lishini ta'minlashimiz lozim.

Glaballashuvning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy mohiyati, unda o'zbekiston davlatining ishtiroki masalasi. glaballashuv jarayonining asl mohiyati, O'zbekistonning tashqi iqtisodiy xavfsizligi, tashqi iqtisodiy faoliyatning qonuniy asoslari, eksport va investitsiya siyosati, O'zbekistonga ta'siri va uni oldini olish va yumshatishga asos bo'luvchi omillarini o'rganish natijasida quyidagi xulosa va takliflarni aytish mumkin:

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy salohiyati yuqoriligi, uning tabiiy va mehnat resurslarga boyligi, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning barqarorligi, tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risidagi qonunlar xalqaro prinsiplarni tan olgan holda ishlab chiqilgani, xorijiy investorlarga yaratilgan sharoitlar globallashtirish jarayonlari shiddat bilan kechayotgan bir davrda O'zbekiston tashqi iqtisodiy xavfsizligi ta'minganligining asosi bo'lib xizmat qildi.

Iqtisodiy o'sishga erishish uchun nafaqat investitsiya xajmini ko'paytirish, balki ular yo'nalishini va tuzulmasini to'g'ri tanlash ham muxim ahamiyat kasb etadi. Investitsiyalash uchun shunday ishlab chiqarish turlari va korxonalarini tanlash zarurki, bunda qisqa muddatli spekulyativ kreditlardan voz kechib, chet el investitsiyalarini uzoq muddatli va imtiyozli foiz stavkalari bo'yicha jalb etish tamoyiliga doimo amal qilishimiz darkor. Bu investitsion jarayonni jonlantirish uchun turtki berish, keyinchalik esa investitsiyalash uchun afzal tarmoqlar va xo'jalik yuritish sub'ektlarini tanlashga imkoniyat yaratish mumkin.

Respublika tashqi iqtisodiy xavfsizligini takomillashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz:

Mamlakatning jahon bozoridagi raqobatga bardoshlilikini ta'minlash;

Eksport tarkibidagi xom ashyo tovarlarining ustuvorligi yo'qotilishi;

Mamlakatning ko'p turdagi mahsulotlar, xususan, oziq-ovqat mahsulotlari iportiga qaramligini bartaraf etish;

Eksport-import operatsiyalariga xizmat ko'rsatuvchi transport infratuzilmalari rivojlantirish;

Kapital oqimining oldini olininishi;

Tashqi qarzlarning salmog'i ortib ketishidan saqlanish;

Tijorat va iste'mol mollari bo'yicha import qaramlikning ortishiga chek qo'yish;

Iqtisodiyotni haddan tashqari ochiqligiga yo'l qo'ymaslik lozim.

Glaballshuvning ijtimoiy siyosiy va iqtisodiy mohiyati unda O'zbekiston davlatini ishtiroki haqidagi fikr mulohazalarimizga yakun yasar ekanmiz, avalambor, shuni chuqur anglab olishimiz darkorki, glaballashuvning mohiyati unda davlatning yuksalishga erishish — bu bir yillik yoki besh-o'n yillik ish emas. Xalq, millat o'z milliy ma'naviyatini yillar, asrlar davomida yuksaltirib, boyitib boradi. Chunki ma'naviyat qotib qolgan aqidalar yig'indisi emas, aksincha, doimiy harakatdagi uzluksiz jarayon bo'lib, taraqqiyot davom etar ekan, uning shiddatli yurishi tufayli ma'naviy hayot oldiga qo'yiladigan talablar ham muttasil paydo bo'laveradi.

Ya'ni, mamlakatimiz taraqqiyot pillapoyasidan yangi-yangi cho'qqilar sari qadam qo'yar ekan, biz yashayotgan zamon sur'atlari shiddat bilan tezlashib, oldimizda yana qancha muammo va mashaqqatlar paydo bo'lar ekan, tabiiyki, ma'naviy hayotimiz ham ana shu sinovlarda toblanib, yuksalib, jamiyatimiz, millatimizning yorug' va sog'lom kelajagini har qanday tahdid va to'fonlardan davr o'zgarishi bilan ularning ko'rinishi va shakli o'zgarishiga qaramasdan bezavol saqlash va asrab qolishga qodir bo'lishi darkor.

Ana shu fikr va xulosalardan kelib chiqqan holda, «Biz kimmiz?» degan savolga javob bermasdan turib, eng muhimi, ma'naviy boylikni, ma'naviyatni yuk-saltirishga doimiy intilmasdan turib biz o'z oldimizga qo'ygan ezgu maqsadlarga erishish mumkin emas, desam, qalbimdan chuqur joy olgan fikrni aytgan bo'laman.

Bugungi kunda glaballashuning inson ma'naviy dunyosiga nisbatan mavjud bo'lgan xavf-xatarlardan albatta ko'z yumib bo'lmaydi, lekin bizning ishonchimiz komilki, xalqimiz tarixning murakkab jarayonlarida irodasi chiniqib, har qanday hujum va tazyiqlarga qaramasdan, ma'naviy olami

kuchayib va yuksalib borayotgani, bizni ko'rolmaydigan kuchlar ham bu haqiqatni tan olayotganini mamnuniyat bilan qayd etamiz.

Barchamizga g'urur va iftixor bag'ishlaydigan tomoni shundaki, bizning ezgu intilishlarimiz zamirida ham ana shunday pok niyat, buyuk ishonch mujassam. Aniq maqsad yo'lidagi bunyodkorlik ishlarimiz amaliy natijalar bera boshlagan, ko'zlagan rejalarimiz bosqichma-bosqich ro'yobga chiqib, dunyo hamjamiyatidan o'zimizga munosib o'rin egallab borayotgan hozirgi kunda xalqimiz, mil-latimiz qalbidagi ana shu ishonch yanada mustahkamlanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

Raxbariy adabiyotlar

1. Karimov I.A. O‘zbekiston erishgan yutuq va marralar-biz tanlagan islohotlar yo‘lining tasdig‘idir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014.– B. 167.
2. Karimov I.A. Mamlakatimizni yanada obod va modernizatsiya qilishni qat’iyat bilan davom ettirish yo‘lida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2013.– B. 137.
3. Karimov I.A. Bizning yo‘limiz – demokratik islohatlarni chuqirlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo‘lidir.-Toshkent “O‘zbekiston”, 2012.-B. 96
4. I.A Karimov. YUksak ma’naviyat - engilmas kuch. - T.: "Ma’naviyat", 2008.
5. I.A.Karimov. "Eng asosiy mezon - hayot haqiqatini aks ettirish". - T; "O‘zbekiston", 2009
6. I.A.Karimov. Milliy istiqloq mafkurasi - xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonch. - T.: "O‘zbekiston", 2000.
7. I.A.Karimov. Vatanimiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish – oily saodatdir. - T.: "O‘zbekiston", 2007.
8. I.A.Karimov. Ozod va obod Vatan erkin va farovon qayot - pirovard maqsadimiz. - T.: "O‘zbekiston", 2000.
9. I.A.Karimov. O‘zbekistonning o‘z istiqloq va taraqqiyot yo‘li. - T.: "O‘zbekiston", 1992.
10. I.A.Karimov. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: "O‘zbekiston", 1999.

11. I.A.Karimov. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. T.: "O‘zbekiston", 1996-yil, 293-bet.

12. Ma’naviy yuksalish yo‘lida. -T.; "Ma’naviyat", 2008 .

Monografiya va risolalar

1. Abdujabbarova. M., Norqulov H. Milliy g‘oya va oila, Milliy istiqlol g‘oyasi targ‘ibotining ilmiy asoslari. T.: 2000.

2. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1993.

3. Barkamol avlod orzusi.- T.: «SHarq» nashriyoti matbaa konserni. 1999.

4. Boboev X. va boshqalar. Milliy istiqlol mafkurasi va taraqqiyot. - T.: YAngi asr avlodi, 2001.

5. Inomova M.O. Oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlar. -T.: Fan, 1995.

6. Milliy istiqlol g‘oyasini shakllantirishda tashkiliy-uslubiy yondoshuvlar. - T.: Akademiya, 2002.

7. Musaev f. Demokratik davlat qurishning falsafiy-huquqiy asoslari.- T.: O‘zbekiston, 2007.

8. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. - O‘zbekiston, 1996.

9. Otamurodov S. Globallashuv va millat. (Siyosiy –falsafiy tahlil), - T.: YAni asr avlodi, 2008.

10. Otamuratov S., Husanov S., Ramatov J. Ma’naviyat asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002.

11. Ochildiev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. - T.: Muharrir, 2009.
12. Ochildiev A. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar. - T.: O'zbekiston, 2004.
13. Ochilova B. SHaxs ahloqiy tarbiyasida ajdodlar merosi.- T.: O'qituvchi, 2004.
14. Ota-Mirzaev O.B., M.X.G'anieva, N.Latipova va boshq. Oila ma'naviyati. O'quv qo'llanma.- T.: Ijtimoiy fikr, 2007.
15. Paxrutdinov SH. «Tahdid» tushunchasi: nazariya va amaliyot.- T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1998.
16. Tillaev S., Insopova G. Zamon, mafkura va yoshlar. // Milliy istiqlol g'oyasi targ'ibotining ilmiy asoslari. - T.: O'zbekiston, 2002.
17. Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi.- T.: O'zbekiston, 2000.
18. Qahharova SH. Global ma'naviyat –globallashuvning g'oyaviy asosi. - T.: Tafakkur, 2009.
19. Quronov M. Mafkuraviy tahdid va yoshlar tarbiyasi.- T.: Akademiya, 2008.
20. G'aniev A. G'arb olamidagi axloqiy muammolar.- T.: Voris, 2007.
21. G'oya va mafkura. –T.: Ijod dunyosi, 2002.
22. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. - T.:Universitet, 1998.
23. Yusupov E., YUsupov O'. Oila – ma'naviyat bulog'i.- T.: 2003.
24. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -T.: "YAngi asr", 2001-yil. II. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar(izohli lug'at). -T.: "YAngi asr", 2002.

25. Ulug'jonov N, M.YUnusova, O'.Ubaydullaev. "Manaviyat-inson ko'rki" Andijon: 2007.

26. Yunusov K. Milliy g'oya va ijtimoiy hayot. -Andijon.: Hayot, 2009 .

III.Maqola va tezislar.

1. Erkaev A. Globallashuv: axborot xuruji va ommaviy madaniyat// "Tafakkur" jurnali. 2008 yil

2. Milliy g'oya targ'ibotining dolzarb masalalari. "Ma'naviyat soatlari uchun tezislarto'plami". Andijon.: 2007 .

3. Talaba yoshlarning milliy ma'naviy merosdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishning ilmiy-uslubiy masalalari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman. (To'plam). Urganch: UrDU, 2009.

4. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari // "Tafakkur" jurnali, 2006-yil, 8 bet

5. Saidov U. Olamon madati // "Tafakkur" 2008 yil

6. Mirovaya ekonomika i mejdunarodnye otnosheniya, 1998, №: 1.

IV.Internet saytlari

1. www.Ziyo-net.uz

2. www.Google.uz

3. www.pilosophy.ru

4. <http://www.falsafa.dc.uz>.

5. <http://www.milliymanaviyat.uz>